

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil 24-yanvardagi № 2-T/M sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti Tilshunoslik kafedrasida bajarilgan


Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy web sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:




Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___40-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy.)


Ilmiy rahbar:

 f.f.d.prof. Sh.Mahmaraimova

Kafedra mudiri:

 PhD. N. Amonturdiyev

Magistratura bo‘limi boshlig‘i:

 PhD. A.Narbayev



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO‘LIMI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 811.512.133:81.373.282

RAVSHANOV DAVRONBEK TANGRIQUL O‘G‘LI

SHAFOAT RAHMATULLO TERMIZIY SHE‘RIYATI ONOMASTIKASI

70230101–Lingvistika: o‘zbek tili mutaxassisligi bo‘yicha magistr akademik
darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar:

Sh.Mahmaraimova

Filologiya fanlari doktori, professor

TERMIZ – 2023

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil 24-yanvardagi № 2-T/M sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti Tilshunoslik kafedrasida bajarilgan

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy web sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___40-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar: _____ **f.f.d.prof. Sh.Mahmaraimova**

Kafedra mudiri: _____ **PhD. N. Amonturdiyev**

Magistratura bo‘limi boshlig‘i: _____ **PhD. A.Narbayev**

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
--------------------	----------

I BOB. ONOMASTIKA VA UNING O‘RGANISH OBYEKTI

1.1. Onomastikaning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi.....	8
1.2. Onomastikaning o‘rganish obyekti.....	18
Bob bo‘yicha xulosalar.....	21

II BOB. SHAFOAT RAHMATULLO TERMIZIY SHE‘RIYATIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR

2.1. Onomastik ko‘lam.....	22
2.2. Shafolat Rahmatulla Termiziy she‘riyatida uchraydigan makroko‘lam birliklari.....	25
2.3. Shafolat Rahmatullo Termiziy she‘riyatida uchraydigan antroponimik va toponimik nomlar.....	29
2.4. Shafolat Rahmatullo Termiziy she‘riyatida uchraydigan ideonimik va kosmonimik nomlar.....	33
2.5. Shafolat Rahmatullo Termiziy she‘riyatida uchraydigan boshqa turdagi nomlar.....	38
Bob bo‘yicha xulosalar.....	43

III BOB. SHAFOAT RAHMATULLO TERMIZIY SHE‘RIYATIDA UCHRAYDIGAN ONOMASTIK BIRLIKLARNING MIKROTARKIBI VA ULARNING IZOHI

3.1. Antroponimik va toponimik mikronimlar va ularning tahlili.....	44
3.2. Shafolat Rahmatullo Termiziy she‘riyatida uchraydigan toponimlarning grammatik xususiyatlari.....	53
3.3. Shafolat Rahmatullo Termiziy she‘riyatida uchraydigan antroponimlarning grammatik xususiyatlari.....	57
Bob bo‘yicha xulosalar.....	58

IV. XULOSA.....	60
------------------------	-----------

V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	62
---	-----------

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Nomshunoslikda, ya'ni tilshunoslik fanining atoqli otlarni o'rganuvchi onomastika (nomshunoslik) bo'limida Shafoat Rahmatullo Termiziy she'rlarida uchraydigan nomlar to'g'risida fikr yuritilgan. Ushbu ikki termin onomastik terminlar bo'yicha tuzilgan lug'atlarda ham berilib, izohlangan va misollar keltirib o'tilgan¹. Shu o'rinda nomshunoslik ikkiga bo'linadi: Umumiy nomshunoslik va xususiy nomshunoslik, aniqrog'i, o'zbek nomshunosligi

Hozirgi kunda o'zbek nomshunosligi ancha yutuqlarga erishdi. Respublikamiz viloyatlari, alohida olingan hududlarning toponimlari, gidronimlari lingvistik jihatdan tahlilga tortilgan edi. Albatta, tilshunoslik sohasidagina bu ro'y bermagan, balki tarix, geografiya fanlari sohalarida ham toponim va gidronimlarga tegishli ilmiy tadqiqotlar ma'lum darajada amalga oshirilgan. Ayni vaqtgacha nom va toponimlarning alohida turlarini tahliliga, xususan, badiiy asarlardagi nomlarning yasalishi, yuzaga kelishiga, ilmiy tahliliga jiddiy e'tibor qaratilmagan.

Dunyo tilshunosligida onomastika sohasi rivojlanib borayotgan ilmiy yo'nalishlarning biriga aylandi. Xususan, nomlar xalqning ruhiy madaniyati, siyosiy va iqtisodiy holati asosida shakllanishi etnolingvistik, etnomadaniy, sotsiolingvistik talqin etish imkoniyatlarini ochadi. geografik joylashish o'rni, xalq nomi, ular kundalik faoliyatda ishlatgan narsa-buyum nomlari va ularning etnik tarkibi haqida boy lingvistik, etnografik, topografik va tarixiy ma'lumotlar beruvchi barcha birliklarni yangi lingvistik paradigmalar asosida psixolingvistik, semasiologik, onomasiologik, etimologik, kognitiv va konseptual aspektlarda tadqiq qilishga e'tibor qaratildi. O'zbek nomshunosligida ushbu sohaga doir dastlabki ishlar amalga oshirilgan va bu ishlar keying ishlar uchun, xususan, mana bunday magistrlik va nomzodlik dissertatsiyalari uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

¹ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. -Н.,2006. 103 б.;
Бегматов Э., Улуков Н.М. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич. Наманган, 2008. 166 б.

Davlatimiz mustaqillikka erishgandan keyin joy nomlariga e'tibor kuchaydi, yangi geografik obyektlar milliy mafkuramizga mos holda nomlana boshlandi. "Ijtimoiy obyektlarga nom berish – bu shunchaki shaxsiy yoki xususiy ish emas. Bu barchamizning vatanparvarlik va ma'naviy saviyamizni yaqqol ko'rsatadigan o'ziga xos mezon"².

Tadqiqotning predmeti qilib Shafolat Rahmatullo Termiziyning 2003-yilda "Yangi asr avlod" nashriyoti tomonidan bosilgan "Ozod so'z" deb nomlangan "Saylanma"ga jamlangan she'rlari, dostonlari, ruboiylari va tuyuqlari, lirik va liroepik asarlari olindi. Mazkur "Saylanma" Shafolat Rahmatullo Termiziy ijodining eng ko'p, salmoqli qismini qamrab olganligi sababli, ilmiy tahlil uchun asos qilib shu nashr tanlab olindi.

Tadqiqotning obykti sifatida Shafolat Rahmatullo Termiziy asarlaridagi atoqli otlar va ularning tarkibi olingan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbek tilidagi onomastik birliklarning ilmiy asosda o'rganilishi o'tgan asrning 50 - yillaridan boshlangan. Shundan ma'lum bir adib ijodida til lisoniy imkoniyatining voqelanishi tadqiqotchilar tomonidan bir necha aspektda turli metodologik hamda metodik jihatdan o'rganilishi mumkin. Chunonchi, o'zbek tilshunosligida muayyan badiiy asar tilining leksik-grammatik xususiyatini o'rganish, til birligining lingvostilistik hamda lingvopoetik tadqiqi singari guruhlariga bo'lish mumkin. Shulardan biri asarda keltirilgan nomlarni tilshunoslik nuqtai nazarida o'rganish.

O'zbek nomshunoslari olib borgan keng ko'lamli tadqiqotlar keyingi yillarda o'zbek tilshunosligi sohasini bir qator monografiyalar (S.Qorayev, T.Nafasov, Z.Do'simov, L.Karimova, A. Turobov, N.Oxunov, N.Begaliyev, T.Enazarov, N.Xusanov, S Karimov, S.Bo'riyev), risolalar (S.Qorayev, E.Begmatov, N.Oxunov, T.Nafasov, T.Enazarov, B.Qilichev), izohli lug'atlar (S.Qorayev, E.Begmatov, Z.Do'simov, X.Egamov, B.Urinboyev, T.Nafasov, B. Nafasova, O.Holiqov) hamda

² Мирзиёев Ш.М. Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли (Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи) // «Халқ сўзи» газетаси, 2019 й., 22 октябрь № 218 (7448).

ko‘p sonli ilmiy hamda ilmiy ommabop maqolalar (S.Qorayev, E.Begmatov, T.Nafasov va boshqalar) bilan boyitdi³. Bu sohada, ayniqsa, T.Nafasov, Z.Do‘simov, H.Hasanov, S.Qorayev, N.Oxunov, N.Xusanov, G.Enazarov, X.Doniyorov, A.Otajonova, B.O‘rinboyev kabi olimlarning hissasi kattadir⁴.

Jahon tilshunosligida so‘ngi vaqtlarda muayyan hududning toponimik tizimini maxsus tadqiq etish maqsadida ilmiy ishlar olib borildi. Shu jumladan, G.Zakirova, A.Garayeva, A.Galsova, M.Surkova va A.Yegurnovalarning turkiy tillarda, K.Konkobayev, K.Risbergenova, R.Xaziyev, R.Sadikova, O.Maxmadjonov o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqotlarda esa toponimlar, T.Nafasov, Z.Do‘simov, J.Latipov, S.Bo‘riyevlarning ilmiy ishlarida struktur-semantik, tarixiy-lingvistik jihatdan o‘rganildi.

Shafolat Rahmatullo Termiziy she‘riyati esa adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ham lingvistik nuqtai nazardan ham deyarli o‘rganilmagan bo‘lib, shoir she‘riyati leksikasi alohida tadqiq manbai bo‘lmagan.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida Shafolat Rahmatullo Termiziy she‘riyatida qo‘llangan so‘zlarning atoqli otlar qatoriga kiruvchilari tadqiq obyektiga olingan.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: Nomshunoslikning o‘rgnish obyektini hamda Shafolat Rahmatullo Termiziyning she‘rlarida uchraydigan atoqli otlarni lingvistik jihatdan tadqiq etish, ijodkor asalarida til usurlaridan foydalanish mahoratini o‘rganish va bu orqali uning o‘zbek adabiy tili rivojidadagi tutgan o‘rnini belgilashdan iboratdir. Tadqiqot maqsadini amalga oshirish quyidagi vazifalarni bajarishni taqozo etadi:

Shafolat Rahmatullo Termiziy she‘rlarida uchraydigan atoqli otlarni jamlash va lingvistik tahlil qilish, ijodini nomshunoslik metodlari orqali o‘rganishning dolzarbligini asoslash;

³ Begmatov Э., Улуков Н.М. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич. Наманган, 2008. 164 б

⁴ Йўлдошев. Б “Ўзбек тили ономастикаси масалалари ”танлаима фанндан услубий қўлланма. С амарканд – 2011 19-6

Ijodkor badiiy soʻz boyigini oʻrganish muammolari va Shafolat Rahmatullo Termiziy sheʼriyati leksikasining oʻziga xos xususiyatlari hamda uni tadqiq qilish masalalarini yoritish;

Shoir ijodining oʻzbek tilshunosligida oʻrganilish holatini ilmiy-tanqidiy baholash;

Shafolat Rahmatullo Termiziy sheʼriyatida qoʻllangan muayyan til birliklarini belgilash;

Shafolat Rahmatullo Termiziy sheʼriyatida qoʻllangan onomastik birliklarni belgilash va ularni lingivistik jihatdan tahlil etish.

Tadqiqot mavzusi boʻyicha adabiyotlar sharhi: Oʻzbek onomastikasi yoki nomshunosligi oʻtgan asrning 60-70- yillarida alohida ilmiy yoʻnalish sifatida yuzaga keldi. Oʻzbek nomshunosligi oʻtgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab eng rivojlangan sohalardan biriga aylandi. Ayniqsa, onomastika sohasining antroponimika, toponimika va etnonimika kabi bir qator sohalarida ishlar amalga oshirilgan. Oʻzbek nomshunosligi bu maʼlumotlar bilan ilmiy izlanishlar amalga oshirilmagan degani emas. Oʻzbek tilshunosligi uchun yosh va kam oʻrganilgan soha sifatida qolmoqda hali ham. Sohaga tamal toshi sifatida qoʻyilgan dastlabki ishlar, monografiyalar va ilmiy maqolalar keyingi tadqiqotchilarga zina vazifasini oʻtaydi. Oʻzbek nomshunosligida malga oshirilgan izlanishlar dastlab ismlarda boshlandi: E.Begmatov “Oʻzbek tili antroponimikasi”, “Ism chiroyi”. Toponimik tadqiqotlar keyin boshlangani bilan qolganlaridan salmoqli ishlar amalga oshirildi: S.Qorayev “Toponimka”, T.Nafasov, V.Nafasova “Oʻzbek tili toponimlarining oʻquv-izohli lugʻati”, T.Enazarov “Sirdaryo viloyati toponimlari”, T.Enazarov” Nomshunoslik masalalari” va boshqa ishlar.

Atoqli otlarning oʻrganilishi masalalarining dunyodagi turli soha olimlari tomonidan ilmiy-nazariy va amaliy asoslarda tadqiq etilishi ancha vaqtdan buyon davom etib kelmoqda. Bu haqida turli tillarda bir qancha ilmiy ishlar eʼlon qilingan. Bunda til va tarixga oid manbalar asosiy tayanch manba hisoblanadi. Shu bilan birga olimlarimizning tadqiq etish faoliyatlari ham mazkur sohaning rivojlanishiga turtki boʻlgan. Atoqli otlarning oʻrganilishi qadim zamonlarga, Mahmud Koshgʻariyning

“Devonu lug‘atit turk” asariga borib taqalsa hamki, uning ilmiy asoslarda o‘rganilishi esa, XX asrning 50-yillaridan boshlangan.

Teonimika, xususan, o‘zbek teonimikasi bo‘yicha R.Nuriddinova, F.Nurmonov, S.Senesarov, N.Uluqov kabi olimlarning maqola va tadqiqotlari mavjud bo‘lib, bular sohaning ilmiy – nazariy asoslanishiga xizmat qiladi. Jahon va o‘zbek nomshunosligi miqyosida qaraydigan bo‘lsak, onomastik birlik bo‘lgan teonimlar chegarasida aniq to‘xtamga kelinmagan. Bunga olimlarning teonimlar xususida turlicha qarashlarga ega ekanligi bilan izohlash mumkin.

Teonimika bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda Olloh, Xudo, Tangri lekemalari, islomgacha bo‘lgan xudolarning nomlari, afsonaviy maxluqotlar – ajdar, dev, pari, shayton, jin nomlari, pir va payg‘ambarlar nomi va shunga o‘xshash birliklar tadqiq obyekti olingan⁵.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda stilistik, qiyosiy-tarixiy, tarixiy-etimologik metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot Shafokat Rahmatullo Termiziy ijodini lingvistik jihatdan o‘rganishga va shoir ijodini nomlar asosida tadqiq qilish imkoniyatini yaratadi. Dissertasiyadan o‘rin olgan nomlardan foydalanishdagi ijodkorning individual mahoratini o‘rganishda samarador va mukammal ekanligini asoslaydi hamda tadqiqot ijodkor badiiy nutqini o‘rganish sohasidagi kelgusida bajarilajak ishlar uchun nazariy manba vazifasini o‘taydi. Tadqiqot Shafokat Rahmatullo Termiziy ijodi leksikasini o‘qitish, shoir ijodiga, tiliga doir leksik fondning, badiiy adabiyotdagi birliklarning lingvistik tahlil etish ijodkorning individual uslubi, tadqiqot obyekti bo‘yicha darslik va qo‘llanmalar yaratishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Ilmiy tadqiqot ishida Shafokat Rahmatullo Termiziy she‘riyati onomastik birliklari yoritiladi.

⁵ Til tizimi sathlari: semantic – funksional va struktur asoslari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2009.55-bet

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I BOB. ONOMASTIKA VA UNING O'RGANISH OBYEKTI

1.1. Onomastikaning o'zbek tilshunosligida o'rganilishi

Ma'lumki, onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'limi, shuningdek tildagi barcha atoqli otlar yig'indisini o'zida ifodalaydi. Onomastika fani tildagi mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o'rganishni maqsad qilib qo'yadi.

Onomastika fani atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga ko'ra quyidagi guruh (bo'lim)larga ajratadi: antroponimiya-kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari), toponimiya-geografik obyektlarning atoqli nomlari, teonimiya-turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari, zoonimiya-hayvonlarga qo'yiladigan (shartli) atoqli nomlar, laqablar, kosmonimiya-fazoviy bo'shliq hududlari, gallaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlari, astronimiya-ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar) nomlarining majmuini o'zida ifodalaydi. Bundan tashqari onomastikaning yana bir qancha bo'lim (guruh)lari mavjud. Masalan, onomastikaning bir bo'limi realionimlar (avval va hozir mavjud bo'lgan obyektlarning nomlari) deb nomlansa, unga zid bo'lgan mifonimlar xayoliy-to'qima obyektlarning nomlarini bildiradi.

Atoqli nomlarning til (lisoniy) xususiyatlarini o'rganilish darajasiga qarab onomastika adabiy va dialektal onomastika, odatdagi (amaliy) va poetik onomastika, zamonaviy va tarixiy onomastika, nazariy va amaliy onomastika kabi turlarga bo'linadi.

Shulardan biri bo'lgan nazariy onomastika til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalarga tegishli atoqli nomlarning paydo bo'lishi, ularning nominatsiya (nomlanish) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o'zgarishlari, onomastik birliklarning nutqda qo'llanilishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi hamda onomastik birliklarning tarkibiy tuzilishini o'rganadi. Badiiy matnlardagi atoqli nomlarni tadqiq etish alohida muammo bo'lib, bu badiiy onomastika yoki onomapoetikaning asosiy vazifasidir. Onomastika, shuningdek, tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy, struktur, genetik, areal, onomastik xaritalashtirish va boshqa

usullarini qoʻllagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik, derivatsion (yasalish, shakllanish), semantik, etimologik kabi jihatlarini ham oʻrganadi.

Amaliy onomastika xorijiy tillarga mansub nomlarning transkripsiyasi, transliteratsiyasi, anʼanaviy (talaffuz va yozilishiga koʻra), tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan nomlarni aniqlash, “begona” nomlarni oʻz tilida qanday yozish boʻyicha yoʻriqnomalar tayyorlash, xorijiy tillardan oʻzlashgan nomlardan yangi onomastik birliklar hosil qilish bilan, nom berish va nomlarni oʻzlashtirish masalalari bilan shugʻullanadi⁶.

Til ijtimoiy hodisalardan biri boʻlib, unda xalqning ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-madaniy qarashlari, milliy rasm-rusumlari, turmush tarzi, orzu-istaklari oʻz ifodasini topadi. Tilshunoslikda shunday lugʻaviy qatlamlar borki, ular maʼlum bir xalqning hayoti, urf-odati, tarixi bilan bogʻliqdir. Bunday lugʻaviy qatlamlarni oʻrganish shu xalq tarixi va etnografiyasini oʻrganishni taqozo qiladi.

Nomshunoslik (ismshunoslik) har bir xalq tarixi, etnografiyasi ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlari bilan bogʻlanib ketadi . Kishilarga va joylarga nom berish turli davrlarda xalqning ijtimoiy hayot sharoitlari, jamiyatda tutgan oʻrni, uning madaniy saviyasi, dunyoqarashi, urf-odati, rasm-rusumlari bilan bogʻliqdir. Nomlar tabiat va jamiyatdagi muayyan oʻzgarishlar bilan bogʻliq holda, maʼlum qonuniyatlar asosida vujudga keladi va xalq tarixi bilan uzviy bogʻliqdir.

Atoqli otlar tarixchilar, geograflar, tilshunoslar uchun ham boy material beradi. Shu jihatdan qaraganda, tarixiy onomastika oʻziga xos xususiyatga ega. Hayot taraqqiy etgan sari kishilarning mafkuraviy, diniy qarashlari, siyosiy hayoti atoqli otlarda aks etganini koʻramiz. Ayrim tarixiy kitoblarni kuzatsak, eramizdan ilgari davrda paydo boʻlgan atoqli otlarga duch kelamiz. Qadimiy davr atoqli otlari oʻsha davrda hukmron boʻlgan zardushtizm mafkurasini, keyinchalik buddizm diniy qarashlarini ifodalagan. Oʻrta Osiyoga islom dini kirib kelishi bilan esa bu din bilan bogʻliq boʻlgan koʻplab nomlarning paydo boʻlganini koʻramiz. Ammo, onomastikada xalq diniy qarashlarining ifodalanishiga turli davrlarda turli xil

⁶ Йўлдошев Б“Узбек тили ономастикаси масалалари ”танлаима фанндан услубий қўлланма. Самарканд – 2011 11-б

munosabatda bo‘lib kelingan. Nomlarda xalq diniy qarashlarining ifodalanishini tabiiy hol deb tushunish lozim. “Din odamlarni birlashtiruvchi, insof va adolatga chaqiruvchi ulug‘ g‘oya” sifatida ham xalqning qalbidan mustahkam joy olgan edi. Ayniqsa, islom dinining muqaddas kitobi “Qur'on” va “Hadis”larning mazmunida musulmon diniga kiruvchi xalqlar orasida ko‘plab xalqchil va demokratik g‘oyalarning ilgari surilishi bu dinning xalq orasida yashovchanligini ta'minlagan.

Hayot taraqqiy etgan sari nomlar ham o‘zgarib, saralanib boradi. O‘zbek tarixiy nomshunosligi olida turgan dolzarb masalalardan biri bu nomlarni konkret aniqlash va ularning lisoniy hamda etimologik xususiyatlarini o‘rganishdir.

Har bir narsaning o‘z nomi bo‘lgani kabi shu nomi bilan aytilishi shart. Xuddi shu ma’noda nom(lar) odamlar uchun yo‘l ko‘rsatuvchidir. Nom bilan, ya’ni kishilarni bir-biridan farqlab chaqirish, ularga murojaat qilish uchun ularning ismi, sharifi, familiyasi, laqabi, taxallusi, qabila-urug‘, xalq nomlarini, joylarni, gidronim (ariq, daryo, dengiz, okean, ko‘l, suv ombori, kanal)larini, osmon jismlarini, o‘simliklarni, hayvonot dunyosi va boshqa narsa-hodisalarni atab, ularni shunga o‘xshash bo‘lgan narsa-hodisalardan ajratib, topib olish uchun esa ularning qanday so‘zlar bilan qay tarzda aytilishi va atalganligini bilish mumkin. Shu bilan birga, ularni shu sohaga qiziqtirib, nomlarning ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy muammolarining talqini va tahlili ularni ommabop ko‘rinishlarda o‘rganishga, mavjud nomlarni to‘g‘ri atash va maxsus ilmiy tahlilga chaqirish, ajratib ko‘rsatish uchun berilgan nomlarga bugungi yoshlarning qalbida hurmat, ehtirom tuyg‘ularini uyg‘otish va ulg‘aytirishga xizmat qiladi⁷.

Boshqa xalqlar kabi xalqimiz ham qadim-qadimdan madaniy, ma’rifiy, iqtisodiy va ijtimoiy, ijtimoiy–siyosiy faoliyatlarida jonli hamda jonsiz narsalarni nomlashga va umuman, narsa-hodisalarni, shuningdek, kishilarni nom(ism) bilan atab chaqirishda qo‘llanadigan nomlarga jiddiy e’tibor berib kelgan. Sababi kishilar o‘zaro muloqotga kirishish uchun odamlarni ham, narsa-hodisalarni ham va butun borliqni ma’lum bir me’yordagi nomlar bilan atab, bir-biridan farqlashga

⁷ Эназаров Т . Номшунослик масалалари . Услужбий қўлланма .- Тошкент:Университет, 2010 . - 1 1 2 6.

harakat qilishgan. Natijada, ularda xalqimizning milliylik, milliy an'ana hamda milliy qadriyatlari o'z izini betakror holda qoldira olgan. Mana shu nomlar milliy o'zlikni anglashga, xalqimizning ruhiy ma'naviy sarchashmalari bo'lgan milliy udum, urf-odat, an'ana va qadriyatlarimizga qayta-qayta e'tibor berishga hissa qo'shadigan vositalardan biri sanaladi. Davlatimiz mustaqillikka erishgandan keyin joy nomlariga e'tibor kuchaydi, yangi geografik obyektlar milliy mafkuramizga mos holda nomlana boshlandi. "Ijtimoiy obyektlarga nom berish – bu shunchaki shaxsiy yoki xususiy ish emas. Bu barchamizning vatanparvarlik va ma'naviy saviyamizni yaqqol ko'rsatadigan o'ziga xos mezondir"⁸. O'z nomini e'zozlay oladigan inson o'zgalarning nomlarini ham to'g'ri va aniq aytish, xatosiz yozish bilan ardoqlashga imkon topadi.

O'zbek onomastikasi yoki nomshunosligi o'tgan asrning 60-70- yillarida alohida ilmiy yo'nalish sifatida yuzaga keldi. O'zbek nomshunosligi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab eng rivojlangan sohalardan biriga aylandi. Ayniqsa, bu sohaning antroponimika, toponimika va etnonimika kabi bir qator sohalarida ishlar amalga oshirilgan.

Qilingan ishlarning aksariyatida ismlar, toponimlar, zoonimlar va etnonimlar tahlil qilingan. O'zbek tilidagi ba'zi tiplari deyarli o'rganilmagan yoki kam tahlil qilingan. Bular orasida o'z tadqiqini kutib turgan sohalar bir qanchadir. Bundaylar qatoriga teonimlar, ktematonimlar, kosmonimlar, agnonimlar, xromonimlar, nekronimlar, fitonimlar⁹. Bu ro'yxatni yirik ko'lamlar va ularning mikroko'lamlari bilan kengaytirib davom etishimiz mumkin

O'zbek nomshunosligida bu ma'lumotlar bilan ilmiy izlanishlar amalga oshirilmagan degani emas. O'zbek tilshunosligi uchun yosh va kam o'rganilgan soha sifatida qolmoqda hali ham. Sohaga tamal toshi sifatida qo'yilgan dastlabki ishlar, monografiyalar va ilmiy maqolalar keyingi tadqiqotchilarga zina vazifasini o'taydi. O'zbek nomshunosligida malga oshirilgan izlanishlar dastlab ismlarda boshlandi:

⁸ Мирзиёев Ш.М. Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли (Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи) // «Халқ сўзи» газетаси, 2019 й., 22 октябрь № 218 (7448).

⁹ Йўлдошев. Б. "Ўзбек тили ономастикаси масалалари" танлаима фанндан услубий қўлланма. Самарканд – 2011

E.Begmatov “O‘zbek tili antroponimikasi”, “Ism chiroyi”. Toponimik tadqiqotlar keyin boshlangani bilan qolganlaridan salmoqli ishlar amalga oshirildi: S.Qorayev “Toponimka”, T.Nafasov, V.Nafasova “O‘zbek tili toponimlarining o‘quv-izohli lug‘ati”, T.Enazarov “Sirdaryo viloyati toponimlari”, T.Enazarov ”Nomshunoslik masalalari” va boshqa ishlar.

Atoqli otlarning o‘rganilishi masalalarining dunyodagi turli soha olimlari tomonidan ilmiy-nazariy va amaliy asoslarda tadqiq etilishi ancha vaqtdan buyon davom etib kelmoqda. Bu haqida turli tillarda bir qancha ilmiy ishlar e‘lon qilingan. Bunda til va tarixga oid manbalar asosiy tayanch ma‘lumot hisoblanadi. Shu bilan birga olimlarimizning tadqiq etish faoliyatlari ham mazkur sohaning rivojlanishiga turtki bo‘lgan. Atoqli otlarning o‘rganilishi qadim zamonlarga, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asariga borib taqalsa hamki, uning ilmiy asoslarda o‘rganilishi esa, XX asrning 50-yillaridan boshlangan.

Ernest Begmatovning tadqiqotlari asosan o‘zbek antroponimlariga bag‘ishlangan holda, qisman antroponimika hamda toponimikaning nazariy va amaliy masalalariga ham munosabat bildirilgan¹⁰. A.Muhammadjonov esa XX asrning 50-yillari oxiridan mamlakatimiz toponimlarining amaliy masalalariga e‘tibor qaratgan bo‘lsa, XX asrning 90 yillaridan esa toponimlarning etimologik tahliliga ham jiddiy e‘tibor berib, bir qancha bahsli va qiziqarli maqolalarni e‘lon qilib kelmoqda. Mamlakatimizda toponimlarni ham nazariy, ham amaliy jihatlardan jiddiy o‘rganish XX asrning 60-yillaridan boshlangan. T. Nafasov XX asrning 60-yillaridan to bugungi vaqtgacha toponimlarning izohli tahlili bo‘yicha ilmiy ishlar olib borgan. Bu olim Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi bir qancha joy nomlarining izohlining tahliliga kirishib, “O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati”, “O‘zbek nomnomasi”, “O‘zbek qishloqnomasi” singari bir qancha salmoqli ishlarni amalga oshirgan.

Suyun Qorayev toponimlarga ham geografik, ham tilshunoslik nuqtai nazardan ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Bu olim XX asrning 60-yillarining ikkinchi yarmidan

¹⁰ Begmatov. Э Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари.Т.,Фан, 1985.16-18-бетлар

ayni shu kunlarga bo‘lgan davrda nomzodlik dissertatsiyasini filologiya fanlari yo‘nalishida, doktorlik ishini esa geografiya fanlari sohasida amalga oshirgan. Zaripboy Do‘simovning ilmiy tadqiqotlari XX asrning 60-yillari oxiridan to bugungi kungacha toponimikaning nazariy va amaliy masalalarini Xorazm viloyati toponimiyasi misolida tahlilga tortgan. Mazkur olimning tadqiqotlarida toponimlarning izohli tahlili asosiy o‘rinni egallaydi.

Farg‘ona viloyati toponimlarini Nosirjon Oxunov XX asrning 70-yillaridan ayni shu kunlarga ilmiy asoslarda o‘rganib kelmoqda. Uning ishlarida Farg‘ona vodiysi toponimlari, xususan, oykonimlari ilmiy asoslarga tayanib, qiziqarli va ishonarli dalillar vositasida tasnif etilib, ularni qisman izohli tahlil qilib, ularga xos xarakterli o‘rinlarini bayon etgan.

N.Uluqov XX asrning oxiridan to bugungi kungacha Farg‘ona vodiysi gidronimlarini izohli va etimologik tahlilga tortib, ularning tarixi (diaxron) va bugungi kundagi (sinxron) holatlariga to‘xtalib, mukammal tasnifini va tahlilini amalga oshirishga harakat qilgan.

Mirali Mirakmalov XX asrning 90-yillarining ikkinchi yarmidan hozirgi vaqtgacha toponimlarni geografiya nuqtai nazaridan tahlil etgan. Bu olim xalq geografik terminlarini o‘rganib, geografik lingvistika to‘g‘risida nazariy va amaliy ishlarni olib bormoqda.

T.Nafasovning “Toponimika” nomli maxsus kurs uchun tuzgan dasturini hamda N.Oxunovning “O‘zbek tilini o‘qitishda joy nomlarini o‘rganish”, “Joy nomlari va ta’lim”, “Joy nomlari–tilimiz lug‘at boyligi” nomli maqolalarida atroflicha to‘xtalangan¹¹. Shuningdek S.Qorayevning “Toponimika” nomli dasturi va o‘quv qo‘llanmasini ham ta’kidlab ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir¹².

¹¹ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимикаси. Махсус курс программаси. Т.,1988. 22 б.; Охунов Н. Ўзбек тили ўқитишда жой номларини ўрганиш // Олий ва ўрта махсус таълим юртларида ўзбек тилининг ўқитилишига бағишланган 3-Республика илмий-амалий конференциясининг тезислари.Урганч, 1992. 7-бет;
Охунов Н. Жой номлари ва таълим // “Таълим бўғинларида она тили ўқитиш мазмунини янгилаш асослари” мавзuidaги ўзбек тили доимий анжумани иккинчи йиғинининг тезислари. Қарши, 1993.42-43-бетлар; Охунов Н. Жой номлари – тилимиз луғат бойлиги // “Таълим жараёнида сўз бойлигини оширишнинг асосий омиллари” мавзuidaги ўзбек тили доимий анжумани учинчи йиғинининг тезислари.Т.,Ўқитувчи, 1995.74-75-бетлар

¹². Qorayev.S Toponimika.Oлий ва ўрта махсус таълим мактаблари учун ўқув қўлланма.Т.,2006. 320 б.

Suyun Karimovning qayd etishicha, SamDUda toponimika laboratoriyasi faoliyat yuritgan¹³. Namlarni yig'ish, to'plash, jamlash ishiga yo'naltirilgan bunday laboratoriyalarning boshqa o'quv yurtlarida ham bo'lishi, faoliyat ko'rsatishi bizning nazarimizda, tabiiy holdir. Oliy o'quv yurtlarida tashkil qilingan toponimika komissiyalari ham e'tirofqa loyiq ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

H.Hasanov, E. Begmatov, T.Nafasov, S.Qorayev, Z.Do'simov, B. Bafoyev, N. Husanov, T.Enazarov, N. Uluqov, M. N. Ramazonova, H. Uzoqov, L. Karimova, J. Latipov, X. Xolmo'minov, N. Oxunov, S.Naimov, Yo. Xo'jamberdiyev, Sh. M. Qodirova, Sh. Yoqubov, P. G'ulomov, M. Mirakmalov, A. Otajonova, A. Aslonov, M. Tillayeva, M. Almamatov singari tilshunoslik, geografiya, tarix, geologiya kabi fanlarining olimlari bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borishmoqda¹⁴.

Bu davrda o'zbek toponimikasi bo'yicha olib borilgan ishlar Bu davrda o'zbek toponimikasi bo'yicha olib borilgan ishlarning samarasi salmoqli bo'ldi. Shu kunga qadar o'zbek toponimikasi bo'yicha 20 dan ortik nomzodlik ishi himoya qilindi. O'zbek toponimikasi bo'yicha himoya qilingan nomzodlik ishlari Qashqadaryo viloyati (T.Nafasov, T.Enazarov, O.Begimov), Surxondaryo viloyati (Yo.Xo'jamberdiyev, X Xolmo'minov), Samarqand viloyati (T.Rahmatov, N.Begaliyev, A.Turobov, S.Bo'riyev), Sirdaryo viloyati (N.Mingboyev), Toshkent viloyati (M.N.Ramazonova), Buxoro viloyati (S.Nayimov, A.Aslonov), Navoiy viloyati (O'.Oripov), Jizzax viloyati (A.Zokirov), Farg'ona viloyati (N.Oxunov, S.Gubayeva, J.Latipov), Xorazm viloyati (Z.Do'simov, A.Otajonova, M.Tichlayeva), Shimoliy o'zbek shevalari toponimiyasi (L.Karimova), 'Toshkent shahri (Sh.Qodirova) toponimiyasi bo'yicha yozilgan edi.

O'zbek toponimikasi muammolari H.Hasanov, S.Qorayev, E.Begmatov, T.Nafasov kabi olimlarning isharida umumiy tarzda ham taxlil qilingan¹⁵. O'zbek tarixiy toponimikasi va antroponimikasi bo'yicha mamlakatimizda ayrim ishlar

¹³ Каримов,С. Олдимизда улкан вазифалар турибди ёхуд ўзбек топонимикасининг бугунги аҳволи ҳақида баъзи бир мулоҳазалар // Маърифат газетаси. 2010 йилнинг 10-январь. 11-саҳифаси.

¹⁴ Йўлдошев,Б“Ўзбек тили ономастикаси масалалари ”танлаима фанндан услубий кўлланма. Самарканд – 2011 12-б

¹⁵ Йўлдошев,Б“Ўзбек тили ономастикаси масалалари ”танлаима фанндан услубий кўлланма. Самарканд – 2011 18-б

qilishan. Masalan, akademik Ahmedov, akademik A.Muhammadjonovning ayrim tarixiy toponimlar etimologiyasiga doir kuzatishlari¹⁶, I.Kamoliddinning O‘rta Osiyodagi qadimgi turkiy toponimiyaga oid ishlari diqqatga sazovor. N.Husanovning XV asr yozma yodgorliklaridagi antroponimlarga, Sh.Yoqubov va B.Bafoyevlarnish Alisher Navoiy onomastikasiga, M.Turdibekovning Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” asari onomastikasiga, I.Xudoynazarovnish o‘zbek folklori onomastikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlari o‘zbek nomshunosligida muhim ahamiyat kasb etadi¹⁷.

Teonimika, xususan,o‘zbek teonimikasi bo‘yicha R.Nuriddinova, F.Nurmonov, S.Senesarov, N.Uluqov kabi olimlarning maqola va tadqiqotlari mavjud bo‘lib, bular sohaning ilmiy-nazariy asoslanishiga xizmat qiladi. Jahon va o‘zbek nomshunosligi miqyosida qaraydigan bo‘lsak, onomastik birlik bo‘lgan teonimlar chegarasida aniq to‘xtamga kelinmagan. Bunga Olimlarning teonimlar xususida turlicha qarashlarga ega ekanligi bilan izohlash mumkin.

Teonimika bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda Olloh, Xudo, Tangri lekemalari,islomgacha bo‘lgan xudolarning nomlari,afsonaviy maxluqotlar - ajdar,dev,pari, shayton,jin nomlari, pir va payg‘ambarlar nomi va shunga o‘xshash birliklar tadqiq obyektiga olingan¹⁸.

R.Nuriddinova diniy va afsonaviy tushunchlarni ifodalovchi terminlar haqida so‘z yuritar ekan,ismlarning tanlanishi va berilishida geografik obyektlar, turli mavjudotlarning yoki bu tarzda nomlanishi har xil diniy, ilohiy, afsonviy, shuningdek, etnografik tushunchalar tasavvurning sezilarli roli borligini ta’kidlaydi. Bir qator onomastic terminlarng paydo bo‘lishida qayd qilingan tushuncha va tasavvurlar motivlik rolini o‘ynaydi; diniy-afsonaviy tushunchalarni umumiy tarzda ifoda qiluvchi terminlar: teonimlar, teonimiya, teonimik nomlar, afsonaviy nomlar,

¹⁶ Мухаммаджошов А. “Турон*” геонкми хакида !’ Ўдбек тили ва адабиёти, 2007. № 2. - Б. 12-16;
Муҳяммадясоиов А. Самарқанднинг тарихний топонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. >Г« 4. - Б. 37-42;
Мудоммялжомов А. Маргилои-Марпшон номииинг маъноси хак.нда II Ўзбек гшш ва адабнётн, 2007. Ҳо 5 .
Б. 39-42; Мухаммаджонов А. Фаргона номишшг маъносига доир // Ўзбектили ва адабиёти, 2007. .V? 6. - Г>
7-12; Муқаммаджопоя А. “Кува” ёки “Кубо” топоними ва “Кубод” дтамасшшнг этимологмк асослари II
Ўзбек тили ва адабиётн, 2008. X? 3. - Г>. 41-46 ва бошқалар.

¹⁷ Бегматов Э., Улуков Н.М. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич. Наманган, 2008. 166 б.

¹⁸ Til tizimi sathlari:semantic – funksional va struktur asoslari.Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2009.55-bet

diniy nomlar, mifik nomlar, diniy-afsonaviy antroponimiya, ilohiylashtirilgan nomlar kabi¹⁹.

O‘zbek nomshunoslari olib borgan keng ko‘lamli tadqiqotlar keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligi sohasini bir qator monografiyalar (S.Qorayev, T.Nafasov, Z.Do‘simov, L.Karimova, A. Turobov, N.Oxunov, N.Begaliyev, T.Enazarov, N.Xusanov, S Karimov, S.Bo‘riyev), risolalar (S.Qorayev, E.Begmatov, N.Oxunov, T.Nafasov, T.Enazarov, B.Qilichev), izoxli lug‘atlar (S.Qorayev, E.Begmatov, Z.Do‘simov, X.Egamov, B.Urinboyev, T.Nafasov, B. Nafasova, O.Holiqov) hamda ko‘p sonli ilmiy hamda ilmiyommabop maqolalar (S.Qorayev, E.Begmatov, T.Nafasov va boshqalar) bilan boyitdi²². Bu sohada, ayniksa, T.Nafasov, Z.Do‘simov, H.Hasanov, S.Qorayev, N.Oxunov, N.Xusanov, G.Enazarov, X.Doniyorov, A.Otajonova, B.O‘rinboyev kabi olimlarning hissasi kattadir²⁰.

O‘zbek nomshunosligining taraqqiyotida onomastikaga oid respublikamizda o‘tkazilgan ilmiy-nazariy anjumanlarning o‘rni kattadir. Masalan, 1974-yilda Buxoro shahrida “O‘rta Osiyo onomastikasining dolzarb muammolari” mavzusida butunittifoq ilmiy anjumani o‘tkazilgan edi. Bu anjumanda juda ko‘plab taniqli olimlar qatori Samarqand shahridan L.I.Royzenzon, H.Berdiyorov, R.Qo‘ng‘urovlar ishtirok etgan edilar. H.Berdiyorov, B.Yo‘ldoshev bilan hamkorlikda bu anjumanda “O‘zbek tilida frazeologizmlar tarkibida atoqli otlarning qo‘llanilishi”, R.Qo‘ng‘urov esa “Mushtum” satirik jurnalida okkazional ma‘noli atoqli otlar” mavzuida ma‘ruzalar qilgan edilar. Xuddi shu yillari SamDUda “Onomastika masalalari” nomi bilan bir necha ilmiy to‘plam nashr etilgan²¹, bu sohada ilmiy tadqiqotlar ko‘lami ancha kengaygan edi. Masalan,shu yillari SamDU olimlari poetik onomastika yoki onomastik uslubiyat masalalari bilan maxsus shug‘ullana boshladilar. Taniqli adabiyotshunos olim E.B.Magazannikning “Onomapoetika yoki adabiyotda gapiruvchi nomlar” nomli yirik monografiyasi Toshkentda nashr etilgan

¹⁹ Til tizimi sathlari:semantic – funksional va struktur asoslari.Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2009.55-bet

²⁰ Б.Йўлдошев “Ўзбек тили ономастикаси масалалари ”танлаима фанндан услубий қўлланма. Самарканд – 2011 19-б

²¹ Вопросы ономастики. Сборник научных статей. Выпуск I. – Самарканд: издание СамГУ, 1971, 150 с.;Вопросы ономастики. Сборник научных статей. Выпуск II. – Самарканд: издание СамГУ, 1975, 95 с.;Вопросы ономастики. Сборник научных статей. Выпуск III. – Самарканд: издание СамГУ, 1976, 170 с.

edi²². Bu olimning shogirdi Yu.Po‘latov esa shu sohada tadqiqotlar olib borib, badiiy matndagi nomlar tarjimasiga doir qiziqarli risola yaratgan edi²³. Keyinchalik I.Mirzayev badiiy tarjimada kishi ismlari va geografik nomlarning berilishiga doir ayrim kuzatish ishlari olib bordi²⁴. XX asrning 80-90-yillarida Jizzax (1985), Guliston (1987), Qarshi (1989), Navoiy (1993; 1998) shaharlarida “O‘zbekiston onomastikasi” deb nomlangan butunittifoq va respublika ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy anjumanlari o‘tkazilgan, ularning materiallari alohida to‘plamlar sifatida nashr etilgan edi²⁵.

Ma’lumki, bizni o‘rab olgan borliq, moddiy olam nihoyatda murakkab, boy, serqirra, rang-barang bo‘lib, uni tashkil qilgan narsa va hodisalar mohiyati, holati, shakli, ko‘rinishi va vazifasiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Biz bu tushunchalarni “turdosh ot” termini bilan yuritimiz va ot turkumi kategoriyasiga kiritimiz. Odamlar o‘zlari yashayotgan hududdagi daryolar, ko‘llar, buloqlarni va ularni tashkil etuvchi birliklarni bir-biridan farqlash uchun turli nomlar bilan atashgan. Masalan: Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Nil, Oyko‘l, Baykal ko‘li, Toshbuloq, Qo‘turbuloq, Marjonbuloq, Zirabuloq kabilar. Bunda ko‘rinadiki, atoqli otlar narsa va hodisalarni, obyektlarni yakkalab, donalab atash zaruriyati tufayli yuzaga keladi. Bunday zaruriyat bo‘lmaganda esa kishilar muloqot jarayonida ularga berilgan umumiy nomdan foydalanish bilan kifoyalanishadi. Masalan: *Mamlakatimizda daryolar ko‘p. Bizning viloyatimizda ko‘llar, buloqlar mavjud*. Shuni unutmashlik zarurki, insoniyat tafakkurining gultoji uning umumlashtirish qobiliyatidir. Agar shunday umumlashtirish qobiliyati bo‘lmaganda, har qanday til million, milliardlab so‘zlardan, grammatik vositalardan iborat murakkab va tushunarsiz hodisaga

²² Магазаник Э.Б. Ономапозэтика или «говорящие имена» в литературе. – Ташкент: Фан, 1978, 148 с.

²³ Пулатов Ю. Бадий асарда номлар таржимаси. – Тошкент: Фан, 1967, 63 бет.

²⁴ Мирзаев И. Бадий таржимада киши исмлари ва географик номларнинг берилиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973. № 5. 70-73-бетлар.

²⁵ Материалы конференции по ономастике Узбекистана. – Джиззак, 1985, 55 с.; Ономастика Узбекистана. Материалы конференции (Гулистан, 27-28 мая 1987 г.). – Ташкент, 1987, 92 бет; Ономастика Узбекистана. Материалы конференции (Карши, 14-16 сентября 1989 г.). – Ташкент, 1989, 208 бет; “Жой номлари – халқ тили ва маънавиятининг нодир мероси” мавзuidaги республика илмий-амалий конференцияси материаллари.–Навоий, 1998, 106 бет ва бошқалар.

aylanardi. Demak, narsa va hodisalarga yakkalab, donalab atoqli ot bilan nomlash o'ziga xos zaruriy ehtiyoj va qonuniyat natijasi sanaladi²⁶.

1.2. Onomastikaning o'rganish obyekti

Har qanday til o'zining ko'p qirrali kommunikativ funksional ehtiyoji va vazifasini ta'minlay oladigan darajada lisoniy vositalarga ega. Mana shunday vositalardan biri konkret va mavhum, real mavjud yoki hayoliy, diniy-falsafiy, madaniy-maishiy sohalarga oid narsa va hodisalar haqida tushunchalarni ifoda etuvchi leksemalardir. leksemalarning miqdoriy majmui, muayyan tizim sifatida uyushgan holati til lug'aviy fondining tarkibini tashkil qiladi. Ushbu leksemalar, odatda, tilshunoslikda muayyan so'z turkumlariga bo'lib o'rganiladi: ot turkumi, sifat turkumi, fe'l turkumi kabi. Ushbu turkumlar o'z ichida yana turlarga bo'linib ketadi. Mana shunday holat ot turkumini tashkil qiluvchi leksemalar uchun ham tegishlidir.

Til narsa va hodisalar, ular haqida xilma-xil hamda murakkab tushunchalar, ularning qirralarini asosiy belgi xususiyatlariga tayangan holda umumlashtirib nomlaydi. Masalan, o'zbek tilidagi *qovun* o'simligi va uning mahsuloti *qovun* deb yuritiladi. Xuddi shuningdek, o'zbek tilidagi *qo'y* so'zini olsak. Keyinchalik *qovun* va *qo'y* ma'lum xususiyatiga ko'ra qo'shimcha guruhlariga bo'lib nomlanadi. Masalan, *ko'kcha, olapo'choq, bo'rikalla* qovun nomlari; *hisor qo'yi, qozoqi* qo'y kabi. Ammo, bu erda ham ular haqidagi tushunchani jamlab, umumlashtirib atash mavjud. Agar bunday qilinmasdan har bir qovun donasi yoki qo'y donasi alohida nomlanversa, tilning leksik boyligi miqdoran cheksiz bo'lib ketadi va insonlar bu nomlarni aytishda xatolikka yo'l qo'yib, adashishga olib keladi hamda til o'zining kommunikativ vazifasini ado etolmay qolar edi. Demak, narsa va hodisalarni, obyektiv olamdagi barcha mavjud borliqni umumlashtirib nomlash inson tafkkuri va tilining ulug' mo'jizasidir.

Ammo jamiyatning kundalik muloqoti, lisoniy hayoti uchun zarur bo'lgan ikkinchi bir ehtiyoj bor. Bu obyektiv borliqdagi narsa va hodisalar, tirik

²⁶ Йўлдошев Б “Узбек тили ономастикаси масалалари” танлаима фанндан услубий қўлланма. Самарканд – 2011 22-6

mavjudlarning har birini alohida, yakkalab, donalab nomlashdir. Qadimda kishilar tabiat hodisalarining sirini hali yaxshi bilmagan paytlarda koʻzi tushgan narsalariga umumiy nom berishgan. Bunday nomlar turli obyektlarni, narsa-hodisalarni oʻzaro ajratish, farqlash uchun xizmat qilgan. Masalan, suv soʻzi suvni va har qanday suv havzalarini, togʻ soʻzi ushbu obyekt tipiga kiradigan har qanday togʻni anglatgan. Ammo asta-sekin odamlar atrofdagi suv oqadigan koʻplab obyektlarga, togʻlaraga duch kelishgan. Kishilarda suv oqadigan bitta joy, togʻlarni, tepaliklarni bir – biridan ajratish ehtiyoji tugʻilgan.

Obyektning narsa va hodisaning bir donasini yakkalab alohida olgan holda nomlash ehtiyoji talab qilingan barcha narsalarda roʻy bera boshladi va tilning leksik fondida aqli otlar deb yuritiladigan nomlar soni osha bordi. Endilikda bir guruhda yashovchi odamlarni bir-biridan farqlash va ularni chaqirish uchun ham nomlar ishlatila boshlandi. Qabiladagilarning ilk antroponimik nomlari urugʻ nomiga kishining laqabini qoʻshib chaqirish boʻlgan. Endilikda tilshunoslikda turdosh va atoqli otlar deb yuritilayotgan ikki ulkan ot guruhi vujudga kelgan. Mana shu ikki guruh tilning leksik tarkibini, lugʻaviy boyligini tashkil qiladi²⁷.

Maʼlumki, har qanday fan oʻzining tadqiq obyektiga egadir. Yuqorida aytib oʻtgan fikrlardan maʼlum boʻladiki, onomastikaning tadqiq objekti har qanday atoqli otlardir. Yaʼni atab qoʻyilgan shartli nomlar.


Tadqiq obyektiga ega barcha sohalarning oʻz birliklari mavjud. Xususan, onomastikaning sohaviy birliklari: antroponim (shaxs nomlari), toponim (joy nomlari), Zoonim (hayvon nomlari), fitonim (oʻsimlik nomlari) va boshqalardir. Keltirilgan birliklar nomlarning turini umumiy nomlaydi. Har bir birlik oʻz ichida yana kichik birliklarga ajraladi. Nomshunoslikning oʻrganish objekti sifatida voqelikdagi narsalarni birini boshqasidan ajratib, umumiydan xususiylik tomonga olib boriladi. Nomshunoslikka oid asarlarda atoqli otlarnigina ushbu sohaning oʻrganish objekti sifatida keltirilgan. Tilshunoslikda atoqli otlar doimo gap yoki matnning qaysi oʻrnida kelishidan qattiy nazar bosh harfda bitilishi oʻzgarmas qoida

²⁷ Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси /-Тошкент: Фан, 2013. 8- 6

sifatida o‘rin olgan. Lekin shu yerda bir savol tug‘iladi. Shunday otlar borki, turdosh ot tarkibida bo‘lib, atoqli otlarga xos xususiyatlarga ham javob bera oladi. Ya’ni narsalarning umumiy nomlanishidan yakkalikka qarab o‘sgan otlardir. Til bir joyda o‘garmay muqim turadigan bir predmet emaski, zamon-makon va insonlar ta’siri bo‘lmasa. Til shu darajaga yetib kelguncha anchgina taraqqiyotni bosib o‘tgan va u bundan keyin ham rivojlanishda davom etadi. Bir vaqtlar alohida so‘z shakllari bo‘lgan so‘zlar hozirda istemolda emas. Ma’nosi o‘zgargan yoxud boshqa bir so‘z shakli bilan birlashib yangi ma’no va xususiyat kasb etgan. Shundan xulosa chiqarish mumkinki, atoqli otlar tarkibiga kirmagan so‘zlar vaqt va faollik nuqtai nazar bo‘yicha o‘z xususiyatini atoqli otlar tomonga o‘zgartirishi mumkin.

Onomastik tadqiqotlarda atoqli otlar xususiyatlariga doir so‘zlar olinadi. Onomastik birlik sifatida ideonimlar, xususan, ktematonimlar o‘zbek nomshunosligida umuman tadqiq etilmagan. Mikroguruh sanaladigan ktematonimlar ko‘p hollarda atoqli ot sifatida emas, balki turdosh ot sifatida yozuvda aks ettirilib kelinmoqda. Masalan, *chimildiq, o‘tov, alla, beshik*.

Shu holatning aksi o‘laroq O‘zbek tilshunosligida turdosh ot sifatida qaraladigan, ammo xususiyatlari atoqli otlarga yaqin turadigan narsa-predmet va faoliyat otlari mavjud. Masalan, turdosh ot guruhiga kiruvchi cholg‘u asboblari. Umumiy qilib cholg‘u asboblari deb ataladi. Uni o‘zaro guruhlarga ajratamiz: cholg‘u asbobi o‘z o‘rnida *zarbli, torli, puflab* chalinadigan va boshqa turlarga; torli cholg‘u asboblari ham ko‘rinishidan alohida- alohida turlarga bo‘linadi: dutor, tanbur, rubob, do‘mbira va boshqlardir. 1- chizma.



Onomastika sohasidagi birliklar insonlar turmush tarzining ajralmas bir qismiga aylanib bo‘lgan va usiz insonlar hayotiy faoliyatini tasavvur eta olishmaydi. Nomshunoslikning o‘rganish obyekti atoqli otlardan insonlar har bir qadamida unga murojat qiladilar. Xususan, kundalik faoliyatda eng ko‘p nomshunoslikning antroponim, toponim, biblonim, xrononim, fitonim va zoonimlarga murojat qiladi.

Bob bo‘yicha xulosalar

Nomshunoslik o‘zbek tilshunosligi uchun hali ochilmagan qo‘riq yer va o‘z egasini kutayotgan xazinadir. Amalga oshirilgan tadqiqotlar onomastik birliklarning yirik guruhlaridagina bo‘lib, o‘zbek lug‘atlarini yangi ma’no va tushunchalar bilan boyita oladigan yo‘nalishlari hali tadqiq qilinmagan. Nomshunoslik uchun obyekt bo‘lgan atoqli otlarga doir qolip yaratilganiga ancha bo‘ldi. Shu vaqt davomida ba’zi turdosh otlar atoqli otlar tomonga vaqt ta’sirida o‘tib qolgan.

IIBOB. SHAFLOAT RAHMATULLO TERMIZIY SHE'RIYATIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR

2.1. Onomastik ko'lam

Onomastik ko'lam tushunchasi.

Atoqli ot va turdosh otlar orasidagi farqlar bizga ma'lum bir tildagi atoqli otlarning barcha mavjud tiplari va hajmini aniqlab olish, o'sha tildagi atoqli otlar doirasini, ular tarqalgan onomastik maydonni bilib olishga ko'maklashadi. Bu muammo nomshunoslikka oid tadqiqotlarda "Onomastik ko'lam" nomi bilan yuritiladi. Dastlab nomshunoslikka oid ilmiy adabiyotlarda bu termin "toponimik ko'lam" deb V.Toporov tomonidan qo'llanib boshlangan. Keyinchalik A.Superanskaya o'z ishlarida har ikkala "onomastik ko'lam", "toponimik ko'lam" terminlardan keng foydalangan. "Onomastik ko'lam" deyilganda biror bir tildagi atoqli otlarning umumiy majmui, yig'indisi tushuniladi. A.Superanskayaning fikricha, "onomastik ko'lam" bu muayyan bir xalq tilida real mavjud hamda taxminiy, hayoliy obyektlarni nomlash uchun qo'llaniladigan atoqli otlar yig'indisidir²⁸.

Agar biz ana shu ta'rifdan kelib chiqib, o'zbek nomshunosligiga murojat qiladigan bo'lsak, o'zbek tilining onomastik ko'lamini shu tildagi barcha atoqli ot tiplari, ko'rinishlarining majmui tashkil qiladi²⁹.

Borliq haqidagi xilma-xil tushunchalarni ongda jamlab, ularni ma'lum belgilariga qarab guruhlash va umumlashtira olish qobiliyati-inson tafakkurining gultoji. Agar mana shu xususiyat bo'lmaganida til milliardlab, so'zladan va gramatik vositalardan iborat bo'lgan supermurakkab va tushunarsiz hamda o'rganib, egallab bo'lmaydigan bir hodisaga aylangan bo'lardi.

Mutaxassislarning kuzatishlaricha, tabiatda qariyb 1330 xil suv turlari bor bo'lib, suvning bu xillari yomg'ir yog'ishi tufayli, turib qolgan suvlar tufayli hosil bo'larkan. Hech bir tilde bu suvlarning alohida nomi yo'q. Shunchaki bu suvlarga

²⁸ Йўлдошев Б "Ўзбек тили ономастикаси масалалари" танлаима фанндан услубий қўлланма. Самарканд – 2011 23-б


²⁹ Shu asar 24-b

sifat berib aytamiz: sho‘r suv,shirin suv, qor suv va boshqalar. Keltirilgan suvlarning har birini atoqli ot bilan donalab nomlash ehtiyoji ham, imkoniyati ham yo‘q. Demak, narsa va hodisalarni yakkalab, donalab atoqli ot berib nomlash o‘ziga xos qonuniyatlarga ega.

Ammo insonning muloqot tajribasi, til tarixi til o‘z vazifasini tafakkurning faqatgina umumlashtirish usuli bilan ish ko‘rgan holda ado etishi mumkin emasligini, ba’zi narsa va hodisalarni, obyektlarni alohida, donalab olingan holda nomlash hayotiy zaruriyat ekanligini ko‘rsatgan.

Onomastik ko‘lam anchagina katta bo‘lib, onomastik ko‘lamni tashkil qiluvchi kichik ko‘lamlar ham mavjud. Shuning uchun tilning umumiy onomastik ko‘lamini superko‘lam deyish mumkin³⁰. 2-chizma

O‘zbek tilining onomastik ko‘lami:



³⁰ Shu asar 24-b

Superko‘lam – eng yirik ko‘lam bo‘lib, o‘zbek tilidagi barcha atoqli otlar majmui sanaladi.

Makroko‘lam – superko‘lamdan keying o‘rinda turuvchi yirik ko‘lam bo‘lib, antroponim, toponim, zoonim, gidronim va xuddi shunday nom turlarini o‘z ichiga oladi.

Mikroko‘lam – makroko‘lamning tarkibiy qismi bo‘lgan nomlar har biri o‘z ichida kichik-kichik nomchalarga ajraladi.

Onomastik ko‘lam murakkab va ko‘p bosqichli hodisadir. Unda atoqli ot ma’lum tiplarining yirik – makro guruhleri, kichik – mikro guruhleri va yanada kichikroq guruhchalari o‘zaro munosabatda bo‘ladi, biri ikkinchisidan tashkil topadi, biri ikkinchisining davomi bo‘ladi, biri ikkinchisini to‘ldiradi. Shu sababli biz o‘zbek onomastikasi ko‘lamini qayd qilingan qonuniyatlardan va o‘zbek tilida mavjud materiallardan kelib chiqqan holda superko‘lam, makroko‘lam, mikroko‘lam va yana kichikroq ko‘lamlarga bo‘ldik. O‘zbek onomastikasi superko‘lamiga kiruvchi 22 ta makroko‘lamni belgilaganmiz. Kuzatishlarimiz ushbu makroko‘lamlar o‘zining tuzilishi va tarkibiga ko‘ra ikki xil xarakterga ega ekanini ko‘rsatdi:

1. Davomli ko‘lamlarga bo‘linmaydigan makroko‘lamlar.
2. Davomli ko‘lamlarga bo‘linadigan makroko‘lamlar.

Davomli, ya’ni yordamchi ko‘lamlarga bo‘linmaydigan makroko‘lamning chegarasi onomastik birlik bo‘lmish konkret atoqli otga borib taqaladi va ushbu bilan chegaralanadi. U boshqa guruhlarga bo‘linmaydi. Bu holda makroko‘lam termini makroko‘lamni ham va uni tashkil qiluvchi atoqli otni ham anglatadi. Onomastik superko‘lam tarkibiga kiruvchi, o‘z navbatida, boshqa yordamchi ko‘lamlarga bo‘linmaydigan makroko‘lamlarga quyidagilar kiradi: teonimiya, fitonimiya, politonim, ergonim atoqli oti. Shu bilan birga, bir qator makroko‘lamlarning chegarasi mana shu kabi tugamaydi. Ular o‘z navbatida yana qo‘shimcha ko‘lamlarga bo‘linadi. Masalan, gidronim makroko‘lami quyidagi tip atoqli ot

guruhlari tashkil qiladi: bationim, gelonim, limnonim, litionim, okeonim, katamonim, spleonim.

O‘zbek tili onomastik ko‘lamining keltirilgan tasnifi ma’lum darajada shartlidir. Chunki tashkil qiluvchi turli tip onomastik tizimni tashkil qiluvchi turli tip atoqli otlarning o‘zaro aloqalari va uni ifoda etuvchi belgilar ko‘p qirrali hamda murakkab. Masalan, aniq onomastik birliklarning har biri (antroponim-Azimbek, kosmonim-Cho‘lpon va boshqalar) superko‘lam bilan uni tashkil qiluvchi atoqli otlar tipi birligi sifatida bevosita bog‘lanadi va unga kiradi. Shuningdek, bu birliklar superko‘lam bilan o‘zi mansub bo‘lgan makro va mikroko‘lamlar orqali ham bog‘lanadi, chunki bu ko‘lamlar mohiyatan superko‘lamga mansubdir³¹.

2.2. Shafolat Rahmatulla Termiziy she‘riyatida uchraydigan makroko‘lam birliklari.

O‘zbek tili onomastikasining makroko‘lami

Har qanday tilning, jumladan, o‘zbek tilining onomastik tizimi va uni tashkil etadigan onomastik birliklar miqdoran g‘oyatda ko‘p qirrali, hajman ulkan, qanday obyektning nomi ekaniga ko‘ra o‘zaro farqlanuvchi va shu bilan birga bir- biri bilan bog‘liq bo‘lgan lisonidir.

Tilning leksik boyligi konkret lugaviy birliklar (leksemalar) dan iborat bulganidek, tilning onomastik fondini onomastik leksika doirasi tarkibiga kiritadigan atoqli otlar tashkil qiladi. Ushbu konkret nomlar onomastikada “til birliklari”, “leksik birliklar” “nutq birliklari” deb yuritiladigan terminlarga o‘xshatib onomastik birliklar deb yuritilmoqda. Onomastik birlik deyilganda, donalab nomlangan konkret atoqli ot ko‘zda tutiladi.

Odatda, lisoniy birliklar tilning ma’lum sathlari sohasiga mansub bo‘ladi, uning mohiyatini tashkil qiladi. Tilda lisoniy birliksiz lisoniy birlikka ega bo‘lmagan sath mavjud emas. Shu sababli A.M.Gurbanov "onomakologiya" (onomastika)ni tilning alohida, mustaqil sathi sifatida ajratadi va uni leksikologiya, semasiologiya va boshqa sathlari bilan tenglashtiradi.

³¹ Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси . -Тошкент: Фан, 2013. 35- 6

Onomastik birlik tushunchasi uchta tomon namoyon bo‘ladi: 1) onomastik birlik termini biror yakka narsa, obyekt nomi, atqli otni ifodalaydi: Masalan: Muhabbat (ism), Farg‘ona (toponim), Mushtariy (kosmonim) kabi; 2) onomastik birlik nominativfunktional xususiyatiga, ma’nosiga ko‘ra biror guruhga birlashuvchi nomlar majmuini ifodalaydi: toponimlar yoki teonimlar kabi; 3) onomastik birlik onomastika doirasida, umuman tilshunoslikda atqli ot tushunchasi bilan bog‘liq leksik kategoriyani anglatadi³².

Onomastik birliklarni belgilash, ularni tadqiq qilish darajasi milliy tillar tilshunosligida har xil darajadadir. Mana shu holatni aniqlash maqsadida ba’zi yirik nomshunos olimlarning ishlarini, shuningdek, bir qator onomastikaga bag‘ishlangan ilmiy to‘plamlardagi maqolalarni ko‘zdan kechirdik hamda onomastik birliklarni ifoda etadigan terminlarni belgiladik. Shu narsa ma’lum bo‘ldiki, bu ishlarda onomastik birliklarning 50 ga yaqin tipi keltirilgan. Bular hozircha turkiy onomastika bo‘yicha ma’lum bo‘lganlari. Jahondagi barcha tillar onomastikasini o‘rganish qayd qilingan birliklar tarkibini yangi tip atqli otlar bilan to‘ldirishi mumkin. Yuqorida sanaganlarimizdan shuni xulosa sifatida quyidagilarni keltiramiz :

1. Onomastikada nisbatan qoniqarli tadqiq qilingan onomastik birliklar antroponim, toponim, gidronim, zoonim, oronim, oykonim, ergonim va etnonimlardir.

2. Onomastika sohasiga ma’lum, ammo kam tadqiq qilingan onomastik birliklarga kosmonim, astionim, ktematonim, urbonimlar kiradi.

3. Tadqiqotlarda tilga olinadigan, ammo alohida tadqiqot obyekti bo‘lmagan onomastik birliklarga dokumentonim, demononim, faleronim, xrononim, xrematonim va boshqalar kiradi.

4. Onomastik birliklarning ba’zi tiplari atqli ot sifatida mavjud va ma’lum bo‘lsa -da, ular deyarli tahlil qilinmagan: anoykonim, anemonim, artionim, agionim, venesuonim, glyatsionim, gemeronim, geortonim, ginekonim, dignitonim, ideonim,

³² Shu asar 25-b

insektonim, katoykonim, litonim, nautonim, oykodomonim, ornitonim, polionim, spleonim, stratonim, terronim, tautonim, fiktonim, xronim nashr qilingan asarlar nomi, transport vositalari nomi, ilmiy, badiiy adabiyot va san'at asarlari atoqli oti va b.

Qayd qilingan atoqli ot tiplari tilning onomastik superko'lamiga onomastik makroko'lamlar lisoniy birligi sifatida kiradi. Onomastik makroko'lam superko'lamdan keyin turuvchi yirik bo'linmadir va unda til onomastik tizimining muayyan belgilar asosida uyushuvchi va birlashuvchi hamda onomastik mikroko'lamni tashkil etuvchi nominativ birliklar mujassamlanadi. Masalan, muayyan atoqli ot tiplari inson tushunchasi bilan aloqador atoqli ot sifatida antroponimiya makroko'lamiga, quruqlikda joylashgan fizikaviy-jo'g'rofiy obyektlarning nomi sifatida toponimiya mikroko'lamiga, samoviy (kosmik) obyektlarning nomi sifatida kosmonimiya makroko'lamiga birlashadi. Mana shunday yirik ko'lamlar milliy til onomastik ko'laminin hajmi va doirasini muayyan butunlik, umumlashma tarzida anglashga yordam beradi³³.

Makroko'lamlarning ko'pchiligi o'zining shaklan qisqa, yaxlit bir so'zga teng nomiga ega: nekronim, anemonim kabi. Afsuski, onomastik ko'lamlarning aksariyati o'zbek tilida mana shu kabi ixcham, yaxlit termin sifatida qabul qilish mumkin bo'lgan muxtasar nomlarga ega emas. To'g'ri, ba'zi ishlarda gidronim terminini "suvnom", toponimni "joynom" kabi kalkalashga intilishlar uchraydi. Ammo bular me'yoriy termin sifatida shakllanib yetganicha yo'q. Shu sababli onomastik makroko'lamlarni ifoda etuvchi terminlarni o'zbek tilida so'z birikmasi yoki ma'noni kengroq shaklda ifodalaydigan iboralar bilan talqin qilishga to'g'ri keladi. Masalan: politonim – davlat ramzlarining atoqli oti, zoonim- zotli hayvonlarga qo'yilgan maxsus laqab nomlar yoki hayvonlar atoqli oti va b. Mana shunday sabablarga ko'ra, o'zbek onomastikasida onomastik makroko'lamlar hozircha baynalmilal xususiyatga ega terminlar bilan yuritilmoqda va ular anglatuvchi ma'nolar quyidagicha:

³³ Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси -Тошкент: Фан, 2013. 37- 6

Zoonimiya – zotli hayvonlar (uy hayvonlari, sirk, hayvonot bog‘i, qo‘riqxonalaridagi yovvoyi hayvonlar)ga qo‘yilgan maxsus laqab nomlar, ularning majmui.

Teonimiya – Ollohning nomi va atributlarini ifoda qiluvchi atoqli otlar va ularning majmui.

Mifonimiya – ertak, epopeya, xalq dostonlari, afsonalarda uchraydigan xayoliy, afsonaviy atoqli otlar, ularning majmui.

Anemonim – tabiat stixiyalari (bo‘ron, shamol, to‘fon, siklon va b.) ga berilgan atoqli otlar.

Ideonim – xalq tarixi uchun ahamiyatli bo‘lgan ba‘zi tarixiy hujjatlar, asarlarning atoqli oti.

Fitonimiya – yakka holda olib nomlangan bir dona o‘simlik va daraxtlar atoqli oti.

Politonim - davlat ramzlari (bayroq, tamg‘a, emblema va shu xil atributlar)ning atoqli oti.

Ergonim – faoliyat yuzasidan uyushgan kishilar jamoasi, shuningdek, muassasa, tashkilot va korxonalar atoqli oti.

Faleronim - har qanday orden, medal, ko‘krak nishonlari, tojlar va sh.k. atoqli oti.

Dignntonim – faxriy unvonlar, mansablar va sh.k. atoqli oti.

Kosmonim – kosmik fazoda joylashgan samoviy obyektlarning atoqli oti.

Stratonim – geologik formatsiyalar, gorizontlar va ularning qismlariga berilgan atoqli ot.

Poreyonim – har qanday transport vositasining bir nusxa (dona)siga berilgan atoqli ot.

O‘zbek tili onomastikasi superko‘lamini tashkil qiluvchi keltirilgan makroko‘lamlar bir-biridan ularga kiruvchi atoqli otlarning tiplari va hajmiga ko‘ra farqlanadi. Makroko‘lamning hajman salmoqdorlari antroponimiya, toponimiya, nekronimiya, ilmiy, badiiy, san‘at asarlarining atoqli otlari ko‘lamidir. Ularga

nisbatan, masalan, politonim, faleronim, dignitonim, anemonim va boshqalar miqdoran va hajman salmoqli emas³⁴.

2.3. Shafolat Rahmatullo Termiziy she'riyatida uchraydigan antroponimik va toponimik nomlar

Shafolat Rahmatullo Termiziy she'rlarida eng ko'p uchraydigan onomastik birliklar antroponimik, toponimik, teonimik va ideonimik nomlardir.

Bu magistrlik dissertatsiyasi uchun predmet etib tanlangan Shafolat Rahmatullo Termiziyning "Ozod so'z" she'riy to'plamida muallif tomonidan foydalanilgan nomlar soni **315** tani tashkil qiladi. Fikr dalili sifatida onomastic birliklarning individual miqdori 3 -chizmada aks etgan. Chizmada birliklar miqdori kamayish tartibida joylashgan.

T/r	Onomastik birliklar	Qo'llanilgan nomlar miqdori
1	Antroponimlar	107
2	Toponimlar	62
3	Ideonimlar	43
4	Teonimlar	32
5	Kosmonimlar	28
6	Etnonimlar	16
7	Gidronimlar	10
8	Mifonimlar	9
9	Zoonimlar	3
10	Ergonimlar	3

Statistik metod yordamida to'plangan bu nomlar orasida keltirilgan birliklarga taaluqli nomlar uchrashi birdan ortiq ekanligini ko'rish mumkin va bulardan bittasi olinadi. Har bir nomshunoslik sohasida amalga oshirilgan ishlarda bu metod faol ishtirok etadi.

³⁴ Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси / -Тошкент: Фан, 2013. 44- 6

Antraponimlar

Ma'limki, antroponimika (ismshunoslik) – nomshunoslikning kishi atoqli otlari (antroponimlar)ning paydo bo'lishi, taraqqiyoti, ism qo'yishdagi motivlar, ularning vazifaviy xususiyatlarini o'rganuvchi bo'lim hisoblanadi. Antroponimiya esa nomshunoslikning (antro-odam, kishi, shaxs; onoma-ism, nom, ya'ni kishining oti) biror tilda mavjud bo'lgan kishi atoqli otlari majmuidir.

Antroponimlar genezisiga ko'ra tilning eng qadimiy, yashovchan hamda turg'un qatlamlaridan biridir. Ismlar o'tmishda ko'p asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bizga tarixiy-lisoniy boylik sifatida etib kelgan ulkan madaniy va ma'naviy qimmatga molik bo'lgan lug'aviy qatlamdir. Bolaga ism tanlash va unga nom qo'yish tamoyillarida o'zbek xalqi o'tmishining tarixi, orzu va intilishlari, ijtimoiy va diniy-falsafiy qarashlari, urf-odatlarini, e'tiqodi hamda ishonchi o'z ifodasini topgan. Mana shu ma'noda ismlar tilning boshqa bir qator lug'aviy qatlamlari kabi o'zbek xalqi ma'naviy qadriyatining tarkibiy qismidir³⁵. Antroponim – asli grekcha so'z bo'lib, antro – odam+onom, ya'ni kishilarga berilgan atoqli otlardir. O'zbek tilida bu termin o'rnida ism, kishi ismi, odam otlarni kishi nomlari kabi terminlar qo'llaniladi³⁶.

Keyingi davrlarda antroponimlarning antropotsentrik tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqotlar ham yaratildiki, bu nomshunoslikning lingvokognitiv jihatdan o'rganishga qiziqishning oshganligini ko'rsatadi. Fikrimizning asosi sifatida D.Xudoyberganova³⁷, N.Ahmadjonov³⁸, D.Yo'ldoshev³⁹ kabi olimlarning ishlarini keltirishimiz mumkin. Onomastik tadqiqotlarni amalga oshirishda antroponimlar quyidagi guruhlar asosida o'rganiladi:

³⁵ Rahmatullayeva Sh, Muminova N Temuriylar antroponimlarining leksik xususiyatlari. Namdu axborotnomasi. 2019. 9-son 3-b

³⁶ Б.Йўлдошев “Ўзбек тили ономастикаси масалалари ”танлаима фанндан услубий қўлланма. Самарканд – 2011 37-б

³⁷ Худойберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол.фан.док.дисс.автореф. – Тошкент, 2015. 72 б.

³⁸ Аҳмаджонов Н. Бадий услубда қўлланилган прецедент номларнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан.бўйича фалс.док. дисс.автореф. – Қарши, 2021.

³⁹ Юлдошев Д. Атоқли отларнинг антропоцентрик тадқиқи: филол.фан.док.дисс.автореф. – Тошкент, 2021. 72 б.

1. Hayvonlar, qushlar va boshqa jonzotlar nomiga asoslangan ismlar: Sherbek, Qumri;
2. O‘simliklar, daraxtlar hamda ulardan olinadigan mahsulot va mevalar nomi: Rayhon, Sumbul, Nulufar, Ra‘no;
3. Tabiiy joylar va o‘rinlar, suv obyektlari hamda suv bilan bog‘liq leksemalarga asoslangan kishi ismlari: Madina, Chaman, To‘lqin va boshqalar.
4. Samo va samo jismlari nomi bilan bog‘liq leksemalar: Oybarchin, Yulduz, Mohinur, Oftoboyim kabi;
5. Fasllar, oylar, kunlar nomi va aynan fasl, oy yoki kun doirasidagi ma‘lum bir paytni anglatuvchi leksemalar, fasllardagi holatni anglatuvchi so‘zlarga asoslangan antroponimlar: Bahora, Navro‘z, Chorshanbi, Hayitgul, Bozor kabi;
6. Tabiiy hodisalar, nur va olov tushunchalari nomi: Oloviddin, Yorqinoy, Nurbek, Munavvar, Uchqun va b;
7. Kasbi-kor, mavqe, mansab, unvon, ish qurollari nomlari: Dehqon, Sayyod, Amir, Askar, Qilich, Bolta kabi;
8. Qabila va elat nomlari: Barlos, Qozoqboy, O‘zbekoyim, O‘zbek, Qirg‘izboy, Oybek, Oybeqa, Oybika, Mitanboy.
9. Ba‘zi tabiiy yoki ijtimoiy hodisalar, holatlar bilan bog‘liq nomlar: Ofat, Ozodbek, O‘tbosar.
10. Rasm-rusm, urf-odat, turli tushunchalar, tilaklar, ijobiy xislatlar bilan bog‘liq leksemalar: Poyon, Sunnat, Qizlarbas Bayram, Tursin, Davlat kabi;
11. Qarindoshlik, qondoshlik ma‘nolarini anglatuvchi leksemalar: Otajon, Otabek, Og‘abek, O‘g‘iloy, Boboqul v.b;
12. Sonlar va miqdoriy ma‘noli leksemalar: Oltmishboy Oltiboy, To‘qsonboy;
13. Jismoniy belgilarni, rang-tusni, ko‘rinishni ifoda etuvchi leksemalar: Xolida, Norxol, Nortoji, Qorasoch, Nafisa, Ortiq, Go‘zal, Latofat;
14. Turli mustahkam tabiiy ma‘danlar, matolar, kiyim-kechak, taqinchoqlar, qimmatbaho toshlarni anglatuvchi leksemalar: Toshpo‘lat, Po‘lat, Temurbek, Gavhar, Kumush, Feruza, Javohir;

15. Oллоhning nomlari, diniy tushunchalar va tasavvurlar, payg'ambarlar nomlari bilan bog'liq leksemalar: Xudoyberdi, Egamberdi, Xudoyqul, Mehroj, Ibodat, Malak va h.k.z⁴⁰.

Shafolat Rahmatullo Termiziy she'riyatida uchraydigan antroponimik nomlar – *Geradod, Ulug'bek, Alpomish, Go'ro'g'li, Beruniy, Shiroq, Amir Temur, Navoiy, Termiziy, "Xo'ja", Sino, Layli, Shirin, Xayyom, Kolumb, Afandi, Xofiz, Luqmon, Firdavsiy, Mahmud, Rudakiy, Hotam, Iskandar, Muqannalar, To'maris, Spitami, Bilga, Qultoy, Sohirqiron, Zuxra, Toxir, Doro, Shayx Abdulmo'min Turkman, Majnun, Zulayxo, Xomer, Mahmud Yalovuch, Sobir Termiziy, Rustm, Suxrob, Dantes, Abdulatif, Bedil, Maxtimquli, Mengnixol, Oshiq G'arib, Zulfiya, Hamid Olimjon, Gippokrat, Galen, Esxil, Sofokl, Yashin, Shiller, Shekispir, Shukur Burxonov, Abror, Hamlet, Otello, Arkadiy Raykin, Bibixonim, Qays, Laylo, Xofiz Xoliq Xursand, Mengziyo, Raxshona, Farhod, Oksana, Oqqiz, Termiziyilar, Rumi, Husaynlar, Ahmad, Boqirg'on, Adib Sobir, Kleopatra, Shaxrizod, Barchin, Yodgor, Hakimbek, Fidiy, Palaklet, Arastu, Farobiy, Chingiz, Mansur Xalloy, Bobur, Nodira, Maxmur, Muqumiy, Furqat, Varroq Termiziy, Juman, Baxshi Fozil, Kumush, Qobil, Xobil, Imon Termiziy, Hakim Termiziy, Babaq Xo'rozovich, G'oyaviy Siyosiyevich, Yulg'ichboyev.*

Toponimlar

Ma'lumki, onomastik birliklar orasida eng ko'p o'rganilgani toponimlardir. Toponimlar asosan apellyativlar asosida hosil bo'ladi. Apellyativ lotincha arrelliativ – turdosh ot so'zidan olingan bo'lib, atoqli otga qarama-qarshi qo'yiluvchi, atoqli ot yasash uchun lisoniy baza bo'luvchi turdosh ot va boshqa tip leksemalaridir. Toponim so'zi negizida shakllangan toponimika geografik obyektlar, ya'ni joy ma'nolarini o'rganib, biror bir yerga atab qo'yilgan nom qanday qilib paydo bo'lgan va nima uchun aynan shunday deb ataladi kabi savollarga javob izlaydi, muayyan bir hududda yashaydigan xalqlarning tarixini, etnografiyasini o'zida aks ettiradi, ularning tili va madaniyatini o'zida mujassam qiladi. Shunday qilib, tilshunoslikda

⁴⁰ Юлдошев Д. Атоқли отларнинг антропоцентриқ тадқиқи: филол.фан.док.дисс.автореф. – Тошкент, 2021. 72 б.

toponim, toponimiya va toponimika atamalari bir-birini taqozo etadi. Toponim – geografik obyektning, joyning nomi; toponimiya – bu nomlarning yig‘indisi, toponimika – ana shu nomlarni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganuvchi sohadir. Toponimikani ba’zan toponimistika/ toponamastika deb ham nomlashadi ⁴¹.

Shafolat Rahmatullo Termiziy she’riyatida uchraydigan toponimik nomlar – *Xolchayon, O‘zbekiston, Qo‘ton, Sterber, Surxon, Xushyorxona, Mulki Turon, Markaziy Osiyo, Asaka, Zaravut, Qutb, Kavkabiston, Hindiston, Boshnoqiston, Osiyo, Kopet – Dog‘, Xitoy, Japan, Kolizey, Sug‘diyona, Kavkaz, Ota Qurqut, Urgut, Sharrak, Shimoli - G‘arb, Yevropa, Mag‘rib, Antraktida, Mashriq, Chambil, Ona Yer - Odamiston, Tus, Eram bog‘i, Ot chopar, Samarqand, Termiz, Hirot, Makka, Rim, Sherabod, Boysun, Angor, Pari qishloq, Lelin grad, Quyosh shahri, Go‘ro‘g‘li shahar, Mardlar shahri, Parfenon, Bobo tog‘, Teshik tepa, Alp tog‘lari, Pomir tog‘i, Ko‘xitang, Olimp, Xonjiza, Behustun tog‘i, Xo‘tan dashti, Teshik tosh, Isnod vodiysi, Ka‘ba, Termiziy daxmasi, Navoiy maqbarasi, Xufu maqbarasi, Bibixonim maqbarasi.*

2.4.Shafolat Rahmatullo Termiziy she’riyatida uchraydigan ideonimik va kosmonimik nomlar

Ideonimalar

Tarixiy asarlar, hujjatlarning atoqli otlari ideonimlar (yunoncha idea g‘oya, ideya + onoma atoqli ot) deb yuritiladi. Har qanday badiiy, ilmiy, diniy, siyosiy asarga beridgan nom (sarlavha), bibliionim (yunoncha biblov – kitob + onoma – atoqli ot) deb yuritiladi. Bibliionimlar ideonimlarning bir turidir.

Ideonimlar yozma nutqning muhim elementi sifatida o‘zi nomlayotgan u yoki bu badiiy asarning tarkibiy qismi sanaladi. Chunki u birinchidan, o‘zi ifodalayotgan asarning nomi, atamasi bo‘lib xizmat qilsa, ikkinchidan, shu asar mazmunini belgilab berish vazifasini ham bajaradi. Birinchi galda asar nomi o‘quvchi diqqatini o‘ziga tortadi. Asar o‘qib chiqib bo‘lingandan so‘nggina o‘sha asar sarlavhasi (ideonim) ma’nosi, unga yuklangan mazmun to‘la va aniq reallashadi. Yozuvchi

⁴¹ Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Тошкент: “Фан”, 2006.

Shuhratning “Shinelli yillar” romanining nomlanishi ham qiziqarlidir. O‘quvchi bu asarning nomini eshitishi bilan asar voqealari ikkinchi jahon urushi yillarida kechishini aniq tasavvur etadi.

Ideonimlar badiiy matnda nominativ, farqlash, informativ kabi bir qancha funksiyalarni bajarishga xizmat qiladi. Bu jihatdan badiiy asar ideonimlari gazeta sarlavhalariga juda yaqin turadi⁴².

Shafolat Rahmatullo Termiziy she’riyatida uchraydigan ideonimik nomlar - “*Oltin beshik*“ , “*Marifatnoma*“ , “*Qobusnoma*“ , “*Ziji Ko‘ragoniy*“ , “*Alpomish*“ , “*Qur‘on*“ , “*Avesto*“ , “*Tipitika*“ , “*Injil*“ , “*Kitobi Karim*“ , “*Al – jabr*“ , “*Surxon tongi*“ , “*Abdulla*“ , “*Suv*“ she’ri , “*Odissey*“ , “*Tuzuk*“, *O‘tov*, *Qimiz*, *Karnay*, *Surnay*, *Nog‘ora*, *Chimildiq*, *Rubob*, *G‘ijjak*, *Tanbur*, *Do‘mbira*, *Beshik*, *Ko‘pkari*, *Chanqovuz*, *Sumalak*, *Surxon tongi*, *Arafa kuni*, *G‘alaba kuni*, *Yangi yil*, *Navro‘z*, *Madonna* , “*Giryra*” musiqasi , *Yor- yor*, *Alla*, *Tanovor*, *Shopen vals*i, *Munojot*, *Cho‘li iroq*, *Navo*, *Segoh*, *Oq oltin qo‘shig‘i*

O‘zbek tilshunosligida ideonimlar va bibliionimlar endigina o‘rganilmoqda⁴³. O‘zbek tili lug‘at tarkibi atoqli otlarga boy, biroq ularning barcha ko‘rinishlari yetarli, to‘liq jamlanmagan, ilmiy manbalarda u yoki bu tarzda tilga olinsa-da, maxsus o‘rganilmagan. Ana shunday yetarli o‘rganilmagan atoqli ot turlaridan biri xrononimlardir.

She’rlarda antroponimik nomlar ma’no ko‘chish usuli bilan predmet orqali ifodalanib kelishini ham kuzatish mumkin.

*Al – jabr*ga ota yurtsan
Hadisshunos kata yurtsan
Osiyoda bitta yurtsan
Sobit sardorim sen mening⁴⁴.

“**Al-jabr**“– “Al-jabr val Muqobala” (arab) – Sharqda (keyinchalik G‘arbda ham) mashhur matematik risola. Al-Xorazmiy yozib qoldirgan ilmiy yodgorlik.

⁴² Тошалиев И. Сарлавхад стилистикаси. - Тошкент- Университет, 1995. - 90 б.;
Абдусандов А. Газета сарлакхаси. - Самарканд: СамДУ нашри, 1995. - 120 б. ва бошқалар.

⁴³ Ёўлдошев Д. Оршгонимларнинг сарлавха вазифасида кулланиш хусусиятларига доир И Ўзбек тилшуносдиги Х Х I асрла (илмий-назарий анжуман материаллари). - Қарши: ҚарДУ, 2008. - Б.57-59 ва бошқалар..

⁴⁴ Termiziy Sh “ Ozod so‘z “ Yangi asr avlod. Toshkent – 2003. 35 – bet

Asarda ikkinchi darajali va chiziqli tenglamalar tasnifi, ularni yechish yo'llari berilgan, geometrik va algebraik munosabatlar orasidagi bog'lanishlar bayon etilgan, umumiy qoidalar ifodalangan

Shafolat Termiziyning "O'zbekiston" she'rida keltirilgan ikki nomdan birinchisiga e'tibor qilsak, bu joyda alloma Muso al-Xorazmiyning "Al-jabr val muqobala" matematikaga oid risolasi nomshunoslik ko'lam nuqtai nazaridan tahlil qilinganda ideonimik birlikdir. Ammo bu o'rinda onomastik birliklar o'zaro biri ikkinchisining ma'no-mazmunini ochib berish uchun ko'chma ma'noda kelgan bo'lib, antroponimga ishora qilmoqda.

Axir "*Oltin beshik*", "*Marifatnoma*"

Millatni uyg'otsa nima boladi?

Yuz yillik xo'jangiz emas xomtama,

Unda yurt mustaqil kema bo'ladi⁴⁵.

Parchada keltirilgan nomlar ham ideonimik nom bo'lib, asar nomini ifodalab emas, balki she'rdagi nomi keltirilgan didaktik kitoblarni o'qigan va millatning marifatparvar insonlariga nisbatan aytilgan.

Kosmonimlar

Kosmonimlar – olam, koinot obyektlari, oy, quyosh va boshqa fazoviy jismlar nomlari bo'lib, ularning majmui kosmonimiya, tadqiq etuvchi soha nomi esa kosmonimika deb yuritiladi. Masalan: Qalqon, Katta Ayiq, Quyosh, Sekstant, Janubiy baliq, Shimoliy toj, Oq yulduz, Qizil yulduz (Mirrix) kabilar⁴⁶.

Kosmik fazoda joylashgan samoviy obyektlarning atoqli oti. O'zbek kosmonimiysi tarkibida tilimizning qadimgi davrlaridan buyon qo'llanib kelanayotgan yuzlab nomlar mavjud. Davrlar o'tishi bilan ayrim nomlarning shakli va ma'nosida turli o'zgarishlar sodir bo'lgan. Shunga qaramasdan, o'zbek kosmonimiyasi tizimini lisoniy tadqiq qilish hanuzgacha maxsus tekshirish obyekti bo'lgan emas. Uning hajmi vazifaviy ko'lami belgilanmagan, umumxalq adabiy tilidagi mavqei aniqlanmagan xalq so'zlashuv nutqining, boshqa xalqlar tilini bu

⁴⁵ Termiziy Sh "Ozod so'z" Yangi asr avlod. Toshkent – 2003. 53 – bet

⁴⁶ Yo'ldoshev B. O'zbek onomastikasi masalalari. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2011. 57 - bet

sath rivojiga qo'shgan hissasi ham o'rganilmagan. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan ishlar to'plangan materiallarning yetarli emasligini, ushbu muammo hali yetarli darajada emaligidir. Bu nomlar xalq madaniyati, dini, ilm-faniga astronomik bilimlar muhim rol o'ynagan. O'zbek tili yozmama yodgorliklarga boy til bo'lib, tarixiy taraqqiyotining turli davrlarida yaratilgan yozma manbalarda kosmonimlarga doir materiallar ham juda ko'p. Bir guruh o'zbek nomshunoslari ta'kidlaganlaridek; o'zbek tili tarixida mavjud bo'lgan va ko'plab tarixiy yozma yodgorliklar hamda tarixiy asarlar tilida saqlanib turgan son-sanoqsiz atoqli otlar, ularning paydo bo'lishi, yasalishi va shakllanishi, ma'no va vazifaviy xususiyatlari, boshqa til lisoniy hamda tarixiy-madaniy, ma'rifiy tomonlari fan uchun qorong'uligicha qolmoqda" Bu fikr o'zbek tili kosmonimlari uchun ham tegishlidir. Kosmik tadqiqotlarning rivojlanishi natijasida yuzlab kosmik obyektlar nomi paydo bo'ldi. Bu nomlar qaysi tilga mansub bo'lishidan qat'iy nazar o'zbek tili leksikadan mustahkam joy olib, hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmoqda.

O'tmishda osmon jismlari inson hayotining ajralmas qismiga aylangani bois, kishilar har bir kosmik obyektning xususiyatlarni yaxshi bilgan va bu haqidagi bilimlarni keyingi avlodlarga qoldirgan. Zamonaviy optik qurilmalar yordamida turli xil yangi kosmik obyektlarning kashf qilinishi bilan osmon jismlarining minglab yangi nomlari yuzaga kela boshladi. Kishilar o'zlarining hayot kechirish jarayonida uchraydigan, duch keladigan predmet va obyektlarni bir- biridan farqlashga majbur bo'lgan. Chunki, kishilarning bir biri bilan aloqasi jarayonida osmon jismlarining nomlari ham xuddi ish qurollari va boshqa predmet nomlari singari zarur bo'lgan. Osmon jismlarining nomlanishi katta-kichikligi, yorug'ligi, samoda hosil qilgan proyeksiyasi kabi farqlovchi belgilari ularni nomlash uchun asos bo'lgan. Chunki, har qanday nomlash jarayoni o'xshash va farqlanuvchi belgilarning asosiga tayanadi. Kuzatishlar natijasida o'zbek kosmonimiyasi tizimida atalish motivlarining norasmiy hamda rasmiy kabi ko'rinishlari mavjudligi aniqlandi⁴⁷.

⁴⁷ Xusainova L. Atoqli otlarning leksik-grammatik guruhlari. Dissertatsiya. Urganch. 2017. 69-b

“**Burj**” nomlari 12 ta har birining o‘z nomi bor.

Savr– Mazkur kosmonim arab tilida “ho‘kiz” ma’nosini anglatuvchi savr so‘zidan olingan.

Hulkar– savr burjida joylashgan oltita yorqin yulduzdan iborat to‘da. Hulkar deb nomlanadi. Hulkar yulduzi dunyo xalqlari orasida turlicha nomga ega. Hulkarning arabcha Surayyo nomi ham turkiycha nomiga ma’nodoshdir. Planeta nomlari. Utorid, Zuhra, Venera, Merkuriy, Yupiter, Nohid, Cho‘lpon, Tong yulduzi, Yo‘lchi yulduz, Yer Mirrix, Mars Mushtariy⁴⁸.

Shafolat Rahmatullo Termiziy she‘riyatida uchraydigan kosmonimik nomlar - *Osmon, Mirrix, Cho‘lpon, Gallaktika, Sitora, Surayyo, Somon yo‘li, Qaroqchi, Jadiy, Davl, Hut, Hamal, Savr, Javzo, Saraton, Asad, Sumbula, Aqrab, Qavs, Yer, Oy, Quyosh, Mars, Saturn, Yupiter, Venera, Merkuriy.*

Umuman olganda, o‘zbek tili kosmonimlari uzoq tarixiy davrni bosib o‘tgan, tilimizning turli taraqqiyot bosqichlarida paydo bo‘lgan lug‘aviy birliklardir. Ular til tarixi, dialektologiya, etnografiya, xalq tarixi va xalqlarning o‘zaro ijtimoiy-siyosiy va madaniy aloqalari haqidagi muhim birliklar sanaladi.

Ilmiy kosmonimiya bilan birga xalq kosmonimiysi ham keng tarqalgan. Xalq kosmonimlari obyekt turlariga ko‘ra burj nomlari (Savr, Mezon, Jadiy, Davl kabi), yulduz turkumlari va yulduz nomlari (Hulkar, Qutb yulduzi, Temirqoziq kabi).

Soatim milida ko‘rinsa **Jadiy**,

U bilan yonma – yon **Davl** bilan **Hut**,

O‘zimga deyman to‘y liboslarin kiy.

Shoshaman, qarasam soat milida

Ko‘rinib turadi **Hamal, Savr, Javzo**

Bo‘y etgan qizlarday isibdi tuproq.

Soatim ishlaydi bu payt ko‘rsatgan

Raqami **Saraton, Asad, Sunbula**

Cheksiz paykallarda bolalarimni

⁴⁸ Эназаров Т. Номшунослик масалалари. Услубий кўлланма. Тошкент: Университет, 2010. 78-б

Kuzataman har kun bo‘yga bo‘y ulab
Aqrab va *Qavsni* yetaklab *Mezon*
Xazinang pallamga qo‘y degan on
Balog‘atga etgan bolalarimning
Fotiha to‘yiga quraman qozon.

Shoirning saylanmasidan joy olgan “Yulduzlar haqida monologida keltirilgan kosmonimlar kosmonimik tadqiqotlarda xalq kosmonimlari nomi bilan ataladi.

Aqrab (arab. –chayon) – yulduz turkumi, 12 ta burj yulduz turkumlaridan biri.

Samodagi yulduzlar insonlarning vaqt o‘lchoviga aylanib ulgurgan. Yulduz nomlari oy nomlari bilan bir qatorda foydalanilgan. Bu yerda kosmonimlar o‘zga ma’noda qo‘llangan.

2.5. Shafolat Rahmatullo Termiziy she’riyatida uchraydigan boshqa turdagi nomlar

Gidronimlar

Gidronim so‘zi (yunoncha gidrog – suv + onoma - atoqli ot) suvlikdagi har qanday (tabiiy va sun’iy) obyektlarning atoqli oti, toponim turi ma’nolarini bildiradi. Respublikamiz hududida daryo, soy, ariq, kanal, jilg‘a, irmoq, buloq, sharshara, sardoba kabi suv obyektlari juda keng tarqalgan⁴⁹.

Shafolat Termiziy she’riyatida qo‘llagan gidronimlar - *Jamna, Amu, Sir, Surxon, Nil, Jayxun, To‘palang, Moviy Visla, Orol, Baxri Xazor*.

Amudaryo–qadimiy eroniy nomi Vaxsh (Vaxshob) bo‘lgan. Daryoning yirik irmoqlaridan biri hozir ham Vaxsh deb ataladi. Abu Rayhon Beruniy Vaxsh xorazmliklarda suv parisi malak nomi deb yozgan⁵⁰. Professor H.Hasanov ma’lumotlariga qaraganda, Pokistonda Amudaryoning hozirgi nomi O‘rta Osiyoda Vaxsh, Vaxshivar, Vaxshivardara degan bir nechta joylar bor. Amudaryoning hozirgi nomi O‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan Omul (Omuy, Omuyya) shahri hozirgi (Chorjo‘y) nomidan olingan deyishadi. Shahar daryodan nom olgan bo‘lishi ham

⁴⁹ Бегматов Э., Улуков П.- Ўзбек ономастикэси герминларктшг язохли луғати. Намаиган, 2006.

⁵⁰ Мамедов А. “Халқ номлари жой номларида” 1994.56

mumkin. Akademik V.V.Bartold “Bu so‘z ariylardan ham oldingi amard xalqi nomidan kelib chiqqan bo‘lsa kerak” degan farazni oldinga suradi. Mahmud Qoshg‘ariyda har qanday sokin, barqaroq, turg‘un narsaning amul deyilishini aytib o‘tish mumkin.. Tarixiy manbalarda Amudaryoning Termiz daryosi, Kalif daryosi, Arang, Raxa, Aranga, Urganch daryosi, Xorazm daryosi kabi nomlari uchraydi.

Sirdaryo—nomlari ham ko‘p bo‘lgan daryo. Qadimgi yunon tarixchilarning asarlarida Yaxartes (Yaksart), ba‘zan Tanais, zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”da Danu, Yaosh, X asrda yozilgan “Hudud ul-olam” qo‘lyozmasida Xashart, Runik turkiy yozuvlarda Yenchuo‘g‘uz, Firdavsiyning ”Shohnoma”sida va Hamdalloh Qazviniyning “Nuzhat-al qulub” (Qalblar huzuri) 1339-yil asarida Gulzarriyun, arablar kelgandan keyingi ko‘pgina solnomlarda Sayhun, arab geografi Ibn Xurdodbeh asarlarida(IX asr) Xishart yoki Qang‘ar, Beruniyda Xasart shakllarida tilga olingan. Shu bilan birgalikda u qaysi yerdan oqib o‘tishiga qarab, Obi Farg‘ona (Farg‘ona daryosi), O‘zgan daryosi, Obi Xo‘jand, Nahr ash-Shosh (Shosh yoki Choh daryosi), Banokart daryosi kabi nomlar bilan atalgan. Shuni aytish kerakki, Yaxartes va Yaksart ham, Xashart va Yenchuo‘g‘uz ham Marvarid (Inju) daryosi degan ma‘noni anglatgan. Xo‘sh, daryoning hozirgi nomi Sirdaryo qachon paydo bo‘lgan? Ba‘zi olimlar (V.V.Bartold, S.G.Klyashtorniy, H.Hasanov) Silis-Sir so‘zining aynan o‘zginasi deb biladilar. Demak, Sirdaryo qadim zamondayoq, o‘rta va yuqori oqimlarda Yaksart, quyi oqimida Silis (Sir) deb atalgan. XIII-XIV asrlarda Sirdaryo etagida Jand shahri yaqinida Jo‘jixonning o‘g‘illari va nabiralarining o‘rdasi Siro‘rda deb atalgan. Bu faktlar daryoning qadimiy nomlaridan biri 2000 yil davomida xalq og‘zida saqlanibgina kelmasdan, ko‘chmanchi o‘zbek qabilalari Movarounnahrni bosib olgach, asta-sekin daryoning asosiy nomi (Sirdaryo) bo‘lib qolganini ko‘rsatadi. Sirdaryo so‘zining ma‘nosi nima? Daryo nomi Sir, ya‘ni “rang” bo‘yoq. “Sariq daryo” loyqa suvli daryo), “Serob” (Sersuv “Sirdaryo” (tog‘ sirtlaridan, tepalaridan oqib keladigan daryo) degan ma‘noni bildiradi⁵¹.

⁵¹ Xusainova.L. Atoqli otlarning leksik-grammatik guruhlari.Dissertatsiya.Urganch. 2017. 57-b

Ergonimlar

BMT – Yer tinchligini mustahkamlash va xavfsizligini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot. Tashkilot 1945 - yilda tashkil etilgan.

Yunesko – Birlashgan Millatlar Tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkilot. Madaniy yodgorliklarni asrash uchun 1946 – yilda asos solingan.

Sarbadorlar – boshini dorga tikkanlar, mo'g'ullar zulmiga qarshi xalq qo'zg'oloni qatnashchilari.

Teonimlar

“Teonim” yunoncha (teog Xudo onoma nom) atoqli ot. Turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari. Xudo bitta. Lekin qadim G'arbiy Yevropa, Gretsiya, Yunoniston, Midiya, Misr kabi davlatlarda hosildorlik, dengiz, olov xudosi, jang xudosi, yaxshilik va yomonlik xudolari kabi diniy qarashlar bo'lgan. Shu qarashlar tufayli qadimgi xalqlar tabiat hodisalari va boshqa tabiiy ofatlardan qo'rqishgan. Masalan, “Avesto” kitobida Xudolar nomi keltirilgan, shular orqali ilohiy madad olishgan. Go'zallik xudosi. to'kin-sochinlik, suv xudosi. Afinada Zevs chaqmoq xudosi, Avesto” da yaxshilik xudosi Axuramazda, yomonlik xudosi Axriman. Hind eposlarini oladigan bo'lsak, ular uchun muqaddas deb qaraladigan Xudolar Krishna, Ram, Lakishman . O'zbek tilida bir qancha teonimlar mavjud bo'lib, ular o'ziga xos genezesiga ega. Teonimlarni tahlil qilishda ularning ma'no ko'lami va qo'llanish doirasiga alohida e'tibor qaratish lozim⁵².

Shafolat Termiziy she'riyatida qo'llagan teonimlar –*Xudo, Xudoyi, Egam, Haq, Olloh, Xurmuzd, Axriman, Ra, Amon, Zevs, Anaxita, Shayton, Azozil, Buddha, Arvona, Muso Iso, Zardusht, Muhammad, Dovud, Yunus, Sulaymon, Nabiyy Jirjis, Mustafu, Murkar-Nakr, Odam, Xavo, Yusuf, Xizr, Jannat, Jahannam, Me'roj tuni*

⁵²Xusainova L Atoqli otlarning leksik-grammatik guruhlari 2017. 72 - bet

Etnonimlar

Millat esa kishilarning barkaror tarixiy birligi, umumiy iqtisodiy turmush hamda til, hudud birligi, madaniyat, ong va psixologiyani o'ziga xosligi zaminida qaror topgan ijtimoiy taraqqiyot shaklidir.

Eng qadimdan XX asrgacha o'zbeklar tarkibiga kirgan barlos, nayman, saroy, qo'ng'iroq kabi urug' va qabilalar, o'z navbatida, bir qancha to'p, tira, shox, avlod, qavm singari tarmoqlarga bo'linadi. Ana shu har bir etnik bo'linishning o'z nomi bor. To'p, to'par, shox, tira, jamoa, toifa, avlod, qavm, urug', qabila, elat, xalq, millat nomlari etnonimlar deb yuritiladi. Etnonim so'zi yunoncha bo'lib, etnos - xalq onoma atoqli ot so'zlaridan tashkil topgan. Har qanday etnos (urug', qabila, elat, xalq, millat va boshqalar) ning nomi, bir tilda mavjud etnonimlar majmui, yig'indisi, ro'yxati etnonimiya. Nomshunoslikning, shuningdek tarix, etnografiya fanlarining etnonimlarni tadqiq qiluvchi sohasi esa etnonimika deb yuritiladi⁵³.

Har qanday etnonimning o'z ma'nosi bor. Ba'zi bir etnonimlar juda qadimiy so'zlar bo'lganidan ma'nosini tushunish qiyin. Odatda xalqlar, millatlar, shuningdek qabilalar, yirik urug'larning nomlari qadimiy bo'ladi. Etnonimlar tarix taqozosi bilan vujudga kelgan bo'lib, ma'lumot tashiydi. Etnonimlarni o'rganish juda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Kishilar bir necha ming yillar davomida ayrim-ayrim holda urug' bo'lib, keyinchalik esa hududiy dialektal umumiylik hosil qilib qabila-qabila bo'lib yashaganlar. "Odam", "inson", "o'zimizning kishilar" kabi ma'nolarini anglatgan ar (er), man(men) kabi etnonimlar ana shu qadim davrlarda paydo bo'lgan. Bir qancha etnonimlar chindan ham odam", rostakam inson" degan ma'nolarni bildiradi. Masalan, udmurtlar (janubiy udmurtlar) tarixiy manbada ar "odam" shaklida tilga olingan. "o'zbek" so'zining kelib chiqishi haqida turli fikrlar bor. Ko'pchilik olimlar ko'chmanchi o'zbeklar Oltin O'rda xoni O'zbekxon ismi bilan atalgan deyishadi. Boshqa ko'pgina turkiy xalqlar kabi o'zbek xalqi ham qabila urug'lardan tarkib topgan. Akademik V.V.Bartold so'zlariga qaraganda, dastlab 32 o'zbek urug'i bo'lgan. Lekin XVI asrdayoq farg'onalik mulla Sayfiddin

⁵³ Бегматов Э., Улуков П.- Ўзбек ономастикэси герминларктшг язохли луғати. Намаиған, 2006. - Б. 95.

Axsikandiy “Majmuat-tavorix” asarida 92 o‘zbek urug‘ini tilga olgan. XIX asrning 60-yillarida bitilgan ”Tuhvatuh tavorixi xoniy” qo‘lyozmasida ham o‘zbek urug‘larini 92 ta deb ko‘rsatilgan. N.Xanikov o‘zining “Buxoro xonligi tasviri” kitobida 97o‘zbek urug‘ining ro‘yxatini keltirgan. O‘zbek urug‘lari nomlarining o‘ziga xos kelib chiqish tarixi bor.⁵⁴

Shafolat Termiziy she‘riyatida qo‘llagan etnonimlar – *Shummer, Massaget, Sug‘d, Kushon, O‘zbek, Turk, Akuz qavmi, Banijon qavmi, Totar, Chechen, Grek, Yunon, Boqtir, Arab, Kobul qavmi.*

Mifonimlar

“Mifonim“ esa afsonalar, ertaklar, rivoyatlarda uchraydigan dev, ajdar singari atoqli otlar, degan ma‘noni bildiradi. Ularning yig‘indisi “mifonimiya”, shunday onomastik ko‘lamni o‘rganuvchi soha nomi esa “mifonimika”dir. Shu bilan bogliq holda o‘zbek nomshunosligida keyingi yillarda “mifozoonim”, ”mifotoponim”, “mifofitonim”, “mifoantroponim” kabi terminlar ham qo‘llanilmoqda.⁵⁵

O‘zbek mifologiyasining obrazlar tizimida afsonaviy qushlar bilan bog‘liq e‘tiqodiy qarashlar ham muhim o‘rin tutadi. Ana shunday xayoliy, mifologik qushlardan biri Anqodir. Ko‘pgina folklor asarlarida Anqo barcha qushlar afsonaviy ajdodboshisi yoki onasi deb tasavvur qilinadi. Shuningdek, Anqo Ko‘hi Qofda yashaydigan afsonaviy qush. Barcha qushlarning podshosi degan mifologik qarashlar ham bor. Ayrim o‘zbek xalq ertaklarida Anqo ramziy qushlar obraziga o‘xshash mifologik jonzot sifatida namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, Anqo obrazi o‘zbek xalq ogzaki ijodi epik janrlari (mif, afsona, ertak, doston kabi)ning mushtarak badiiy elementlaridan biri bo‘lib, xalqimizning bu qush to‘grisidagi e‘tiqodiy qarashlari mifologik va epik talqinlar sifatida folklor asarlariga chukur singib ketgan. Xalq og‘zaki ijodi badiiy an‘analarining bevosita ta‘sirida o‘zbek mumtoz adabiyotida “Anqo” obrazi badiiy timsol⁵⁶.


⁵⁴ Xusainova.L. Atoqli otlarning leksik-grammatik guruhlari.Dissertatsiya.Urganch. 2017. 51-b

⁵⁵ Бесгматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономасшкиси гермкларининг изох;ш лугати. - Наманган, 2006. - Б. 47.

⁵⁶ Ж ў р а СВ Анко образн талкинпа донр мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти 2001. № 2. - Б. 54;
Ж ўраев М ., Пяршқулова М . Мнф. фольслор ва адабнёт. - Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекстон
мнллий кутубхонаси нашриётн, 2006. - Б. 103-107.

Mifonimik nomlar –*Humo, Samandar, Hurlar, Dev, Ajdar, Ins, Jin, Semurg, Promotey, Qaqnus*.

Shafolat Termiziy she'rlari uchraydigan mifonimik nomlarning kichik guruhlari. Bu kichik birliklar mifonimlarning asosini tashkil etadi va buni quyidagicha 6-chizmada ko'rishingiz mumkin:



Bob bo'yicha xulosa

Xullas, o'zbek tilining onomastik ko'lamini nihoyatda murakkab va keng hajmli tushuncha sanaladi. O'zbek tilidagi barcha makroko'lam, mikroko'lam va ko'lamchalarga kiruvchi atoqli ot materiallarini sinchiklab to'plash, ularning tarkibini aniq tarzda tadqiq qilish o'zbek nomshunosligining dolzarb muammolaridan biridir. Bunday keng ko'lamli tadqiqot onomastika sohasi uchun faqat nazariy emas, balki ulkan amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday ilmiy ishning natijalari tilimiz lug'at boyligining g'oyat murakkab va serqirraligini namoyish qiladi va bu ish nomlash bilan bog'liq milliy va o'zlashma so'zlarga katta yordam beradi. O'zbek tilidagi nomlarni chuqurroq tadqiq etish madaniy va xalq tarixi hamda uning kelajak avlodlarga yetkazishda samarali vosita hisoblanadi.

III BOB. SHAFLOAT RAHMATULLO TERMIZIY SHE'RIYATIDA UCHRAYDIGAN ONOMASTIK BIRLIKLARNING MIKROTARKIBI VA ULARNING IZOHI

3.1. Antroponimik va toponimik mikronimlar va ularning tahlli

Makroko‘lamlardan 8 tasi: antroponimiya, zoonimiya, kosmonimiya, toponimiya, gidronimiya, ideonim, poreyonim, mifonimiya davomli guruhlar mikroko‘lamlarga bo‘linishini ko‘rsatdi.

I. Antroponimlarga kiruvchi mikroko‘lam tarkibi:

Ismlar— odamga yoshlik paytida beriluvchi atoqli ot.

Laqab—shaxsga uning atrofida gilari tomonidan beriladigan, kishining xarakterili belgi va xususiyatini ifoda qiluvchi, asosan, shaxs ismi bilan birga qo‘llanuvchi nomi.

Otasining ismi – shaxsning otasi yoki bobosi ismidan keyin “o‘g‘li“, “qizi“ so‘zlarini keltirish yoki – ovich (ovna), –evich (evna) qo‘shimchalarini qo‘shish orqali yasaladigan atoqli ot.

Patronim— shaxsni uning avlod-ajdodlari nomini keltirish usulida atash.

Matronim –ona(ayol) ning ismi yoki laqabidan yasalgan ism yoki familiya.

Elonim –mashhur shaxslar nomiga nisbat berilgan atoqli ot.

Taxallus – ijtimoiy faoliyati jarayonida shaxsning o‘zi tanlagan, uning asosiy ismi bilan birgalikda yoki uning o‘rnida qo‘llaniladigan to‘qima atoqli ot.

II. Zoonimiyaga kiruvchi mikroko‘lam tarkibi:

Giponim – zotli ot (lar) ga beriladigan laqab-nom.

Ornitonim –alohida, yakka olingan qushga berilgan nom.

III. Poreyonimga kiruvchi mikroko‘lamning tarkibi:

Nautonim – kemalarning atoqli otlari.

IV. Kosmonimiyaga kiruvchi mikroko‘lamning tarkibi:

Selenonim –Oy yuzasidagi har qanday alohida obyektning alohida nomi.

V. Toponimiyaga kiruvchi mikroko‘lam tarkibi:

Oykonim— aholi yashovchi turarjoy, maskanlar atoqli oti.

Oronim— tog‘, adir, tepalik nomlari

Agronim – vodiylar, dalalar,, adirlar, yer uchastkalarining atoqli oti.

Nekronim – mozorlar, qabristonlar va mana shu tipdagi muqaddas qadamjoylar atoqli oti.

Dromonim – harakatlanishga imkon beruvchi har qanday yer osti va yer usti yo‘llariga berilgan nom.

Drimonim – o‘rmon, o‘rmon massivlari, bog‘lar atoqli oti.

Insulonim– har qanday orolga qo‘yilgan atoqli ot.

Glyatsonim – muzliklarga berilgan atoqli ot.

VI. Gidronimga kiruvchi mikroko‘lam tarkibi:

Bationim – okean tagida mavjud bo‘lgan tabiiy obyektlar (sayozlik, yoriq, o‘pçon) atoqli oti.

Gelonim – botqoqliklarning atoqli oti.

Gimnonim – ko‘l va boshqa xil suv havalari atoqli oti.

Otiokeonim – okean, dengiz va ularning qismlari (bo‘g‘oz, ko‘rfaz, qo‘ltiq va shu kalabilar) atoqli ot.

Patomonim – har qanday daryoga berilgan atoqli ot.

Spleonim – yer ostida joylashgan, yer ustiga chiqish yo‘liga ega har qanday obyekt (g‘or, yer osti daryolari, buloqlar, sharshara)ga berilgan nom.

VII. Ideonimga kiruvchi mikroko‘lam tarkibi:

Ktematonim – xalq tarixi, milliy madniyati uchun ma‘lum qimmatga ega bo‘lgan ba‘zi buyumlar, asbob-uskunalar, nodir qurollarga berilgan nom.

Dokumentonim – xalq tarixi uchun alohida ahamiyatga ega hujjatlar nomi.

Xrononim – tarixiy davrlar, bosqichlarning atoqli nomi

Geortonim – har qanday byram, festival, xotira kunlari va shu xildagi marosim va tadbirlarga berilgan nom

Gameronim – matbuot organlari (gazeta, jurnal, byulleten va b) atoqli oti

Biblonim – har qanday badiiy, ilmiy, diniy, siyosiy asarlarga qo‘yilgan atoqli ot.

Artionim – tasviriy san‘at asarlari (rang-tasvir, grafika, plastinka , kuy, qo‘shiq,) atoqli oti

VII. Mifonimiyaga kiruvchi mikroko‘lam tarkibi:

Mifoantroponim – mifik ma’noga ega ism.

Mifotoponim – mifik ma’noga ega joy nomi

Mifizoonim – mifik ma’noga ega hayvon yoki qush nomi.

Mifofitonim – mifik ma’noga ega bo‘lgan daraxt yoki o‘simlik nomi.

Mifonekronim – mifik ma’noga ega bo‘lgan muqaddas joy nomi

Mifooronim – mifik ma’noga ega bo‘lgan tog‘lar, qirlar, tepaliklar, dovonlar, cho‘qqilar.

Mifikosmonim – mifologiya bilan bog‘liq bo‘lgan samoviy obyektlarning atoqli oti.

Shu narsa xarakterliki, ba’zi mikroko‘lamlar keltirilgan bo‘linishlar bilan tugamaydi va ular o‘z navbatida qo‘shimcha ko‘lamchalarga bo‘linadi. Chunonchi oykonim, urbonim, nekronim, partonim, okeonimlar mikroko‘lamlari.

Bu holat quyidagicha:

Agionim – muqaddas deb hisoblanuvchi narsalar, obyektlar, shaxslar atoqli oti.


Demonim – iblis,shayton; jin kabilarga berilgan maxsus nomlar.

4-chizma

Mikroko‘lam	Kichik ko‘lam	Izoh
oykonim	kataykonim	Lug‘aviy asosini biror joyda istiqomat qiluvchilar nominitashkil qiluvchi oykonim
oykodomonim		Alohida olingan bino, inshoot, me’morchilik obidalari atoqli oti.
Urbanonim	godonim	Shahardagi liniyali obyektlar (ko‘chalar, shohko‘chalar, torko‘cha, bulvar, hiyobon, suv qirg‘oqlari, sohillar va b.) atoqli oti.

Nekronim	agionim ekklekzipnim	Muqaddas deb hisoblanuvchi narsalar,obyektlar, shaxslar atoqli oti. Diniy marosimlar o‘tadigan joy (machit, cherkov, monastir va b.) atoqli oti
pereyonim	nautonim	atoqli ot
okeoionim	pelagonim	atoqli ot

Onomastik ko‘lam haqida so‘z borganda, munozaraga sabab bo‘luvchi yondosh hodisalardan biri - bu mifonimlarning alohida makroko‘lam tashkil qilishi yoki qilmasligi masalasidir. Bu masalada turlicha nuqtai nazarlar bor. A.V.Superanskaya mifonimlarni “onomastik ko‘lamning o‘ziga xos sektori”, deb atagan edi. Bu so‘zda jon bor, chunki hayoliy, afsonaviy nomlar onomastik ko‘lamga kiruvchi barcha atoqli ot guruhlari tarkibida uchraydi. Nomning mifonim deb yuritilishiga sabab - unda ifodalangan narsa, obyektning real mavjudlikka emas, balki hayolga, tasavvurga, farazga asoslanganligidir. Demak, nomning motivida mifik tasavvur yotadi. Bunday nom toponim ham, antroponim ham, zoonim ham, oronim ham, gidronim ham bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra, mifonimlar tarkibini chizmada quyidagicha ko‘rsatish mumkin: 5–chizma



Yuqoridagidan kelib chiqilgan holda onomastik ko‘lamni tashkil qiluvchi nomlarni ular atayotgan obyektning xususiyatiga ko‘ra ikki katta guruhga ajratish mumkin. Yuqoridagidan ma’lum bo‘ladiki, tilning onomastik ko‘lami nihoyatda murakkab va keng hajmli tushunchadir.

O‘zbek tilidagi yuqorida keltirilgan makroko‘lam, mikroko‘lam va kichik ko‘lamlarga kiruvchi atoqli ot materiallarini sinchiklab to‘plash, ularning nominativ, motivativ, funksional xususiyatlarini tadqiq qilish o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biridir. Bunday tadqiqot onomastika sohasi uchun nafaqat nazariy, balki ulkan amaliy ahamiyatga ega. Chunki bunday ishning ilmiy natijalari o‘zbek tili lug‘at boyligining g‘oyat murakkab va serqirraligini namoyish qiladi, tabiiy-geografik obyektlarni nomlash ishini ilmiy asoslarda olib borishga ko‘maklashadi, o‘zbek xalqi tarixi, madaniyati, ma’naviyati hamda tilining teran ildizlarini chuqurroq anglab yetishga boy material beradi⁵⁷.

Yuqorida berilgan mikronomlardan kelib chiqqan holda dissertatsiya predmetida uchraydigan mikronomlarning izohini keltirmiz.

Anrtoponimik mikronomlar.

Ismi – *Geradod, Ulug‘bek, Beruniy Shiroq, Amir Temur, Kolumb, Xomer, Abdulatif, Bedil., Maxtimquli, Zulfiya, Gippokrat, Galen, Esxil, Sofokl, Yashin, Shiller, Shekspir, Shukur Burxonov, Abror.*

Otasining ismi – *Babaq Xo‘rozovich, G‘oyaviy Siyosiyevich, Yulg‘ichboyev Mahmud Yalovuch, Hamid Olimjon*

Taxallusi – *Navoiy, Nodira, Varroq Termiziy, Imon Termiziy, Hakim Termiziy.*

She‘rlarda keltirilgan antroponimik nomlardan ba‘zilarini ko‘rib o‘tamiz.

Chechan qilding ne *Fozildek* asillar

Qodir, Chorsha, Shoberdiday nasllarni

Shu botir el – baxshi zavqing hosillari

Yurtning buyuk timsoli bo‘b balq, Alpomish

Sening o‘zing mangu g‘olib xalq, *Alpomish*

Bu antroponimik nomlar o‘zbek baxshichilik maktabining yirik namoyondalaridir. Shu bilan birga Alpomishning xalqi bo‘lmish o‘zbek xalqining shunday so‘zga usta insonlarni yetishtirganini ifodalab kelmoqda.

Sening o‘zing mangu g‘olib xalq, *Alpomish*

⁵⁷ Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси / -Тошкент: Фан, 2013. 48- 6

“**Alpomish**” - o‘zbek xalq qahramonlik dostoni. Turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. “A”ning qoraqalpoq, qozoq, oltoy versiyalari doston shaklida, tatar va boshqird versiyalari ertak va rivoyat shaklida bizgacha yetib kelgan. O‘zbeklar “A”, qoraqalpoqlar “Alpamis”, qozoqlar “Alpamis batir”, oltoyliklar “Alp Manash”, qozon tatarlari “Alpamasha”, boshqirdlar “Alpamisha va Barsin hiluu” deb nomlaganlar⁵⁸.

Bu naqorat qismida muallif Alpomishni yakka shaxs emas, balki butun boshli bir xalq sifatida tasvirlagan. Alpomish o‘zbek xalqining umumlashma obrazidir. Bundan tashqari

Qirlaringda *Qultoy* bo‘lib qo‘zi boqdim

Misrasida muallif keltirilgan nomning kimligi haqida emas, uning shug‘llangan mashg‘ulotini shu yumush bilan shug‘ullanuvchilar tiidan aytilgandek ma’noda keltirgan. Nomlar she’riyatda keltirilganda ko‘p hollarda ko‘chma ma’nolarga egaligi bilan ajralib turadi.

Alpomish va Qultoy antroponimik nomlarining hosil bo‘lishi nuqtai nazaridan jismoniy holati hamda tashqi ko‘rinish asosida (Alpomish), ijtimoiy kelib chiqishiga qarab (Qultoy) qo‘yilgan.

Er – suvimiz ul ilohiy rizqdir jomi

“*Payg‘ambar*“ ul ko‘ksimizda orol nomi.

Balkim shunda paydo *Zardusht – Spitami*,

Ezguliklar ummatiga bizkim pir biz

Avliyo biz, anbiyo biz, bizkim Termiz⁵⁹.

O‘zbek nomshunosligida kam uchraydigan insulonim birlik “Payg‘ambar oroli” qadimdan qolgan toponimik nomdir. Amudaryoda inson bemalol yurib o‘toladigan sayoz yo‘l orqali orolga o‘tish mumkin bo‘lgan bu joyni xalq “*payg‘ambar oroli*“ deya nomlagan.

Balkim shunda paydo *Zardusht – Spitami*,

O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida quyidagicha nomga ta’rif berilgan.

⁵⁸ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 jildli.. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. A - harfi 385 – bet

⁵⁹ Termiziy Sh “Ozod so‘z“ Yangi asr avlod.Toshkent – 2003. 13 – bet

Zardusht- Zaratushtra (Avesto tili bo'yicha), Zoroastr (yun.) (mil. av. taxm. 618, Xorazm - mil.av. 554, Balx)- zardushtiylik asoschisi; Movarounnahr, Xuroson va Eron xalklarining birinchi voizi, shoir, din peshvosi; payg'ambar. Spitama urug'ining raisi Purushasp xonadonida tug'ilgan⁶⁰.

Bandning uchinchi misrasida agnonim keltirilgan. Bu nom payg'ambarning shu nomi keltirilgan hududda bo'lganligiga ishora tarzda keltirilgan.

Toponimlarning Shafolat Termiziy she'riyatida uchraydigan mikronomlar:

Oykonimlar

Oykonimlar joy nomlari orasida alohida guruhni tashkil etadi. Qayd etilganidek, aholi punktlari va uning ichki bo'linishlari – qishloq, ovul, mahalla nomlari oykonimlar deb yuritiladi. Oykonimlarning o'ziga xos xususiyatlari sifatida shuni aytish lozimki, territoriya tarixiga oid ba'zi ma'lumotlar oykonimik nomlarda yaxshi saqlanib qolgan. Aholining o'tmishdagi etnik sostavi – qaysi urug', qabila, qavm, toifaga mansubligi, iqtisodiy turmish sharoiti – qanday kasb- hunar bilan shug'ullanganligi, shuningdek joyning biron kishiga qarashlilikini ifodalovchi oykonimlar fikrimizning dalilidir. Bundan farqli ravishda toponimlarning boshqa turlarida, chunonchi, gidronim va oronimlarda etnik nomlardan, kishi ismlaridan yasalgan toponimlar birmuncha kam uchraydi.

Oykonimlar ba'zilarining nomi vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Bu hodisa aholi punktlari jamiyatining ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy - madaniy hayoti, turmush darajasi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, jamiyatdagi ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy - madaniy o'zgarishlar ko'proq oykonimlarda aks etadi. Aholi punktlarining nomlari tarkibida qo'llanuvchi qishloq, kent, ovul, mahalla, qo'rg'oncha, guzar, ko'cha terminlari ham oykonimlarni xarakterlovchi muhim belgilardan hisoblanadi.

Oykonimga kiruvchi nomlar – *Xolchayon, O'zbekiston, Qo'ton, Sterber, Surxon, Xushyorxona, Mulki Turon, Markaziy Osiyo, Asaka, Zaravut, Qutb, Kavkabiston, Hindiston, Boshnoqiston, Osiyo, Xitoy, Japan, Kolizey, Sug'diyona,*

⁶⁰ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 jildli.. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. Z - harfi 52 – bet

Kavkaz, Ota Qurqut, Urgut, Sharrak, Shimoli - G'arb, Yevropa, Mag'rib, Antraktida, Mashriq, Chambil, Ona Yer - Odamiston, Tus, Eram bog'i, Otchopar, Samarqand, Termiz, Hirot, Makka, Rim, Sherabod, Boysun, Angor, Pari qishloq, Lelingrad, Quyosh shahri, Go'ro'g'li shahar, Mardlar shahri, Parfenon.

Oronimlar

Toponimlarning ma'lum bir qismi yerning geomorfologik xususiyatlari asosida nom olgan bo'ladi. Yer tuzilishi, sathi bilan bog'liq bo'lgan bunday toponimlar oronimlar deb ataladi. Oronimlar yerning rel'fi shakllarini o'zida aks ettiradi. Yer yuzasi shakllari har xil: tekislik, tog'lik, qir, tepalik, jarlik, soylik, chuqurliklardan iborat bo'lishi mumkin. Mana shu xususiyat toponimlarning nomlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Vaqt o'tishi bilan joyning rel'efi o'zgarishi mumkin, lekin o'sha rel'efni ifoda qilgan nom saqlanib qolaveradi. Chunonchi, "tepa", "jar" ma'nosini saqlagan toponimlarning ayrimlari hozirgi vaqtda o'sha rel'ef xususiyatini aynan anglatmasligi mumkin. Chunki keyingi paytlarda qilinayotgan qurilishlar, ochilayotgan yangi yerlar tufayli ularning rel'efi ham o'z-o'zidan o'zgargan. Biroq shunday bo'lsa-da, saqlanib hududning o'tmishdagi rel'efidan "esdalik" bo'lib qolmoqda.

Oronimlar rel'efni bildiruvchi quyidagi so'zlar vositasida shakllanadi: tepa, jar, chuqur, do'ng, tog', dasht kabilar.

Oronimlarga kiruvchi toponimik nomlar – *Bobo tog', Teshik tepa, Alp tog'lari, Pomir tog'i, Ko'xitang, Olimp, Xonjiza, Behustun tog'i, Xo'tan dashti, Teshik tosh, Isnod vodiysi, Kopet - Dog.'*

Nekronimlar – *Ka'ba, Termiziy daxmasi, Navoiy maqbarasi, Xufu maqbarasi, Bibixonim maqbarasi.*

Toponimik nomlarning ayrimlarining izohini keltirib o'tamiz.

Burchingning bayrog'in tutgil yuqori,

So'zingga ustuvor chiqarsn g'olib

Ulug' mamlakatning olmos viqori

Bo'lgay xirmonlaring - u oltin *Olimp*⁶¹.

Olimp – Gretsiyadagi eng baland tog' massivi. Egey dengizining Termaikos qo'ltig'i sohilida. Eng baland joyi 2917 m. Ohaktosh va slaneslardan tuzilgan. Tik yon bag'irlarida dara ko'p. Keng bargli va igna bargli o'rmonlar bor. Cho'qqilarida qishda qor bo'ladi. Milliy bog' tashkil etilgan. Yunon afsonalarida O.t. muqaddas tog', xudolar makoni hisoblangan.⁶²

Lug'atlarda keltirilgan ma'nosi "Chorlov" she'rida keltirilgan ma'nodan tubdan farq qiladi. Faqatgina uning buyukligigina ikkalasida ham o'xshash. Keltirilgan oronim o'zbek bobodehqonining ulkan boyligi bo'lmish oq oltindn bino bo'lgan, tog'dek uyilgan xirmonga tashbeh qilingan.

Shoirning "Paxta qo'shig'i" she'rida ham yuqoridagidek paxta xirmoniga o'xshatilgan toponimik nomlar keltirilgan.

Tizildi yerdan oygacha yetgudek ajib karvon,
Muddaoning qasriga har karvon tilla Narvon.
Alp tog'lar belin bukib yuksaldi ulug' xirmon,
Xirmonlar cho'qqisida bulutlar ham quladi,
Oltin tog'lar boshida *O'zbekiston* kuladi⁶³.

Alp tog'lari – Yevropa qitasidagi eng baland tog' massivi hisoblanadi.

Har ko'rganda bir zo'r olov yoqar mening jismimni,
Yuzmi,ko'zing qay biri u *Kushkaning* quyoshimi?
Bilsang har kun takrorlayman ming bor sening ismingni,
U erimas qalbing sening *Kopet – Dog'*ning toshimi?⁶⁴.

Ushbu badda keltirilgan patomonim (*Kushka*) va oronim (*Kopet – Dog'*) lar Shafolat Rahmatullo Termiziyning "Turkman qiziga" deb nomlangan she'rida bu onomastik birliklar lug'atlarda keltirilgan izohdan tubdan farq qiladi.

Kushka – Afg'oniston va Turkmanistondagi daryo. Murg'ob daryosining eng yirik chap irmog'i. Paropamiz tog' tizmasining shim. Tarmoqlaridan boshlanadi.

⁶¹ Termiziy Sh" Ozod so'z " Yangi asr avlod.Toshkent – 2003. 63 – bet

⁶² O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 jildli.. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. O- harfi 52 – bet

⁶³ Termiziy Sh" Ozod so'z " Yangi asr avlod.Toshkent – 2003. 81 – bet

⁶⁴ Termiziy Sh" Ozod so'z " Yangi asr avlod.Toshkent – 2003. 63 – bet

O‘z. 277 km (shundan qariyb 150 km Afg‘oniston hududida), havzasining mayd. 10,7 ming km². Atmosfera yog‘inlari va qor erishidan to‘yinadi. Yozda qurib qoladi. O‘rtacha yillik suv sarfi quyilish joyida 3,52 m³/sek. K. vodiysida Sarhadobod sh. joylashgan⁶⁵.

Har ko‘rganda bir zo‘r olov yoqar mening jismimni,
Yuzmi,ko‘zing qay biri u *Kushkaning* quyoshimi?

Bandning birinchi qismidagi yuzmi,ko‘zing so‘zlarida qo‘shimchalar o‘rnining joylashuvi uning musiqiyiligining ta‘minlab,so‘roq ma‘nosini har ikkisida yuzaga chiqaradi. Ishq olovi oddiy olov emasligini bildirib, uni Kushka quyoshiga tenglashtiradi.

Bilsang har kun takrorlayman ming bor sening ismingni,
U erimas qalbing sening *Kopet – Dog‘ning* toshimi?

Muallif bandning ikkinchi qismida so‘z o‘yinidan va tinish belgisidan mohirona foydalangan. Turkman qizi (Menglixon) ismidagi nuqta (xol) ni oronimik nomdagi Kopet – Dog‘ning Dog‘ qismiga qiyoslaydi. Lug‘atlarda bu oronimik nomada tire mavjud emas. Milliy ensklopediyada asli ko‘rsatilgan.

Tabiat mo‘jizasi bo‘lmish xolning inson umri davomida yo‘qolmasligi she’rda jafokash yorning qalbidagi erimaydigan toshga o‘xshatadi.

3.2.Shafolat Rahmatullo Termiziy she’riyatida uchraydigan toponimlarning grammatik xususiyatlari

Atoqli otlarning grammatik xususiyatlari tarkibiga qo‘shimcha qo‘shilishi, bir mustaqil ishlatiladigan, ishlatilmaydigan so‘zlar qo‘shilishi yoki ikki mustaqil so‘zning qo‘shilishidan hosil bo‘luvchi atoqli otlar yoki bir qismi mustaqil holda ishlatila olmaydigan atoqli otlar, so‘z yasovchi, shakl yasovchi qo‘shimchalar qo‘shila olishi, grammatik ma‘no ifodalay olishi atoqli otlarning grammatik xususiyatlaridir.

Toponimlarning tuzulishiga ko‘ra turlari

a) Sodda toponimlar

⁶⁵ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 jildli. 7-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. K - harfi 822 – bet.

- b) Qo‘shma toponimlar
- c) Birikmali toponimlar

Sodda toponimlar bu tipdagi toponimlarni ikki gruppaga bo‘lish mumkin⁶⁶. Ularning ayrimlari tarkibida yasalganlikni ko‘rsatuvchi formantli saqlagan bo‘lishi yoki aksincha nol ko‘rsatkichli bo‘lishi mumkin. Misol: *Termiz, Tus, Rim* kabi. Demak, sodda toponimlarning ikki xil modelini ko‘rsatish mumkin.

Qo‘shimchasiz nomlar. Bu model bir sostavli nomlarni o‘z ichiga olib, ularning tarkibida hech qanday grammatik ko‘rsatkich yo‘q: *Yevropa, Urgut, Kavkaz, Zaravut* va boshqalar. Bu nomlarning ko‘pchilligi apellyativ so‘zlarning funksional ko‘chishi yoki bu nomlar tarkibidagi komponentlarning tushib qolishi natijasida toponimga aylangan. Qo‘shimchasiz toponimlar boshqa nomlar yasashga asos bo‘la oladi. Ular struktura jihatdan o‘zgarishi, turli grammatik elementlar qabul qilish mumkin.

Qo‘shimchali nomlar. Bu model ancha murakkab bo‘lib, ular tarkibidagi formantlarning ayrimlari affiks xarakterga ega. Toponimlarning morfologik strukturasidagi shunday elementlar borki, ular semantik jihatdan til strukturasidagi holatini yo‘qotgan. Bu elementlar nomlar tarkibida affiks, to‘g‘rirog‘i affiksoid holiga kelib qolgan. Ular toponimning biror xarakterli xususiyati yoki uning tarixiga ishora etadi. Toponim yasaliishidagi leksik-grammatik xarakterdagi yasaliish bilan affiksasiya usulida yasaliishni aralashtirish ko‘p hollarda toponim motivlarini noto‘g‘ri talqin qilishga olib kelmoqda. Bu holatni faqat o‘zbek tilshunosligida emas, balki boshqa turkiy tillar toponimlarini tekshirishga bag‘ishlangan ishlarda ham kuzatish mumkin. Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida toponimlarning yasaliishi va ularning morfologik strukturasini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda, shuningdek, turli hududlarning toponimlarini tekshirish dissertatsiyalarda toponim yasaliishining ikki yo‘li: affiksasiya va kompozisiya usullari qayta-qayta qayd etildi. Ko‘pgina toponimik modellar hamda toponim yasovchi affikslar tavsiflanadi. Deyarli barcha dissertatsiyalarda -lik, -chi, -li, -lar

⁶⁶ 1Дўсимов З.,ТиллаеваМ. Топонимика асослари. Тошкент, 2012.7-6

kabi ko‘plab qo‘shimchalar toponim yasovchi affikslar qatoriga kiritiladi. O‘zbekiston toponimlarining ba’zi grammatik xususiyatlari toponimlarning qanday gap bo‘laklaridan iborat ekanligi, shakl shamoyili modellar deyiladi. O‘zbekiston geografik nomlari grammatik tuzilishiga ko‘ra sodda va qo‘shma toponimlarga bo‘linadi.

Sodda toponimlar o‘z navbatida, qo‘shimchasiz toponimlarga va qo‘shimchali toponimlarga ajratiladi. Qo‘shimchasiz, affikssiz toponimlar deganda birgina otdan iborat, boshqa biron unsur qo‘shilmagan geografik nomlar tushuniladi⁶⁷.

Toponimlar bir so‘z yoki bir o‘zak va qo‘shimchadan shakllangan holatda bo‘lsa, ular sodda toponimlar sanaladi. Ularning shoir she’rlaridagi toponimiyasi tizimidagi holatini quyidagi tarzda ko‘rsatish mumkin. Ularga misollar quyida berildi: *Xolchayon, Afrasiyob, Xonjiza, Angor, Boysun, Rim, Makka, Termiz, Tus, Chambil, Yevropa, Urgut, Kavkaz, Zaravut, Asaka, Osiyo, Xitoy, Japan.*

Qo‘shma toponimlar. Qo‘shma toponimlar ham qo‘shma so‘zlar kabi bir so‘z ma’nosini beradigan toponimlar sanaladi. Ularning shoir she’rlaridagi toponimiyasi tizimidagi holatini quyidagi tarzda ko‘rsatish mumkin. Ularga misollar quyida berildi: *Bobotog‘, Otchopar, Sherobod, Lelingrad, Xushyorxona*

Birikmali toponimlar. Ikki so‘zning shakl va mazmuniga ko‘ra birikib, birikmani hosil qilishi kuzatiladi. Mana shu holat toponimlarda kuzatilsa, ular birikmali toponimlar deyiladi. Ularning qismlari qo‘shib yozilmaydi. Bunday toponimlarga quyidagilar misol bo‘ladi: *Ota Qurqut, Mulki Turon, Markaziy Osiyo, Isnod vodiysi, Xo‘tan dashti, Behustun tog‘i, Pomir tog‘i, Teshik tepa, Alp tog‘lari. Eram bog‘i, Pari qishloq, Quyosh shahri, Go‘ro‘g‘li shahar, Mardlar shahri.*

Nomlarning hosil bo‘lishiga qarab qo‘shimchali va qo‘shimchasiz nomlarga bo‘linadi. Qo‘shimchali nomlarning asosini formantli nomlar tshkil etadi.

Formantli nomlar - tarkibida turli so‘z yasovchi, so‘z o‘zgartiruvchi va boshqa morfemalar bo‘lgan toponimlar formantli nomlar deb yuritiladi.

Bunday toponimlar bir necha xil bo‘ladi:

⁶⁷ Xusainova L. Atoqli otlarning leksik-grammatik guruhlarini. Dissertatsiya. Urganch. 2017. 76-b

a) oddiy geografik yoki ijtimoiy- iqtisodiy atamalar shaklidagi sodda toponimlar: *Yevropa, Urgut, Kavkaz, Zaravut, Asaka, Osiyo*

b) urug'-aymoq, el-elat nomlari bilan ataladigan geografik nomlar: *Xitoy, Japan, Ota Qurqut, Bobotog', So'g'diyona*

g) o'simlik va hayvon nomlaridan kelib chiqqan geografik nomlar: *Otchopar*

Qo'shimchali toponimlar deganda, otga qo'shimcha -affiks qo'shib yasalgan geografik nomlar tushuniladi. Quyidagi qo'shimchalar joy nomlari tarkibida ko'proq uchraydi: **-iston** *Odamiston, Hindiston, Boshnoqiston, O'zbekiston, Kavkabiston.*

Atoqli ot birliklari o'z – o'zidan yuzaga kelib qolmaydi. Ushbu holatda ular bir turdan ikkinchi bir turga o'tishi yoki atoqli ot bo'lmagan appelyativlar asosida yasalishga uchrab yuzaga keladi. Apellyativ lotincha arrellyativ – turdosh ot so'zidan olingan bo'lib, atoqli otga karama-qarshi qo'yiluvchi, atoqli ot yasash uchun lisoniy baza bo'luvchi turdosh ot va boshqa tip leksemalaridir. Atqli otlarning kattagina qismi turdosh otlar orqali yuzaga keladi. Turdosh otga shakl qo'shilishi yoki til evolyutsiyasi va jamiyat o'sishi hamda vaqtning ta'sirida turdosh ot muloqot jarayonida atoqli otga aylanishi mumkin.

Bu holat ko'proq onomastik birliklardan toponim va gidronimlarda uchraydi. Antroponimlarda esa qisman ko'zga tashlanadi. Masalan:

Antroponim + obod, gorod = toponimik nom

Turdosh ot + fe'l = toponimik nom

Shafolat Termiziy she'rlarida ham shu xildagi nomlar uchraydi: *Otchopar, Sherabod, Lelingrad, Bobotog', Teshiktosh.*

Lelingrad so'zi tarkibidagi ikkinchi qism fonetik hodisaga uchragan. Ikkinchi qismidagi so'z ruschadan shahar manosini beruvchi "gorod" so'zining o'zgargan shakli.

Otchopar dastlab bu nom otlarning yugurishiga mo'ljallangan joy bo'lib, hozirda shartli ravishda nomi ko'chgan.

Otchopar-turli sayllar o'tkaziladigan maskan. Ushbu joy nomi bilan ataladigan maskanlar rasmiy tarzda ot musbaqalari o'tkaziladigan hudud.

3.3. Shafolat Rahmatullo Termiziy she'riyatida uchraydigan antroponimlarning grammatik xususiyatlari

Hozirgi davrda o'zbek tilidagi ismlarni lisoniy tuzilishiga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin:

1. Sodda tuzilmali antroponimlar
2. Yasama tuzilmali antroponimlar
3. Qo'shma tuzilmali antroponimlar

Sodda tuzilmali antroponimlar. Sodda antroponimlar ular uchun asos bo'lgan leksemaning tuzilishiga mos keladi va mohiyatan tub nomlardir. Masalan: *Iskandar, Geradod, Ulug'bek, Alpomish, To'maris, Toxir, Zulfiya, Doro* va b. Sodda ismlarni sodda, tub deyish, ularni bo'g'in tuzilishiga ko'ra tahlil qilish, aslida ism uchun asos bo'lgan apellyativning tuzilishini qayd qilishdan iboratdir. Bu xususiyatlar ismga xos deb o'ylash o'rinli emas. Chunki, apellyativ yaxlit leksema holatida ism vazifasiga o'tadi. Bu o'rinda apellyativ atoqli ot otga o'tgach, unda hosil bo'ladigan xususiyatlar haqidagina gapirish mumkin. Masalan, ismning individual tushuncha ifodalashi, bosh harf bilan yozilishi va b. Shuni ham ta'kidlash joizki, o'zga tillardan o'zlashgan bir qator ismlar uni qabul qilgan til, o'zbek tilida sodda ism sifatida qabul qilinadi. Umuman, o'zbek tilida sodda ismlarni sodda deb qarash ham nisbiydir. Chunki ism bir qator antropofomantlarni qabul qilib, boshqa shaklga o'tib turadi: *Mengli-Menglixon*.

Yasama tuzilmali antroponimlar. Tarkibiga so'z yasovchi qo'shimcha qo'shish orqali yangi so'z yasalgan atoqli otlar.

Qo'shma tuzilmali antroponimlar. Ot+ot, sifat+ot, son+ot tipidagi atoqli otlar ko'p uchraydi. Sodda tarkibli nomlar atoqli otlarni tarkibiga ko'ra tahlil qilish usuli ancha keng tarqalgan. Ayniqsa, bu toponimlar, antroponimlar, etnonimlar tadqiqi misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Atoqli otlarning tuzilishi deganda uning morfologik tarkibi nazarda tutiladi. Nomning morfemalardan, ya'ni lug'aviy asos va yasovchi vosita yoki lug'aviy asos va yasovchi vosita yoki lug'aviy asos va formantdan iborat tarkibi uning tuzilishini tashkil etadi. Nomlarni morfologik jihatdan tadqiq qilish atoqli otlarning bir qator o'ziga xos lisoniy xususiyatlarini

e'tiborga olishni taqozo qiladi. Garchi soʻzning morfologik tarkibini belgilash soʻz va morfemaning munosabatlarini belgilashdan iborat boʻlsa, atoqli otlarning morfologik tarkibida bu jarayon ancha murakkabdir. Atoqli otlarning koʻpchiligi sinxron planda morfemalarga ajralmaydi. Ularning aksariyat koʻpchiligi tarixiy taraqqiyot jarayonida har xil fonetik va tarkibiy jihatdan oʻzgarishga uchragan. Hozirgi davrda tarkibiga koʻra boʻlinmas deb qaraladigan nomlar diaxron tahlil jarayonida butunlay teskari natija berishi ham mumkin. Shunday ekan, bu borada tarixiy morfologik tadqiqotlar samarasini ham eʼtibordan qoldirmaslik lozim. Nomlarni tarkibiga koʻra tadqiq qilish jarayonida bu xildagi oʻziga xosliklarni eʼtibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Sodda tarkibli nomlar tarkibiga koʻra birgina lugʻaviy asosdan iborat boʻlgan birliklardir: *Iskandar, Geradod, Ulugʻbek, Alpomish, Toʻmaris, Toxir, Zulfiya, Doro* kabi

Qoʻshma tarkibli nomlar birdan ortiq lugʻaviy asoslardan hosil boʻladi. Ularning tarkibida nomning qaysi onomastik guruhga taalluqli ekanligini koʻrsatuvchi onomastik indikatorlar ishtirok etadi⁶⁸. Masalan, xon (Avazxon), jon (Qorajon), pari (Oypari), kabi. Qoʻshma tarkibli nomlarni yasaliş qolipiga koʻra bir necha turga boʻlish mumkin: 1.ot+ot; Bu qolip birliklari turli xil onomastik elementlardan tashkil topadi: 1) antroponimik+indikator: Avazxon, Misqol pari, Yunuspari, 2. Sifat+ot: Oqqiz, Qorajon, Qoradev kabi.

Bob boʻyicha xulosalar

Atoqli otlarning grammatik tuzilish xususiyatlari ancha qiziqarli. Atoqli otlarning grammatik guruhlari qoʻshimchlar va soʻzlarning hozirgi va avvalgi holatini ochishga yordam beradi.

Atoqli otlarning leksik-grammatik guruhlarini oʻrganar ekanmiz bu sohada samarali izlanishlar olib borgan va shu sohaning yetuk zamonaviy tilshunoslikda fidoiy zahmatkashlari chiqqanligini yaqqol koʻrishimiz mumkin. Atoqli otlarni leksik-grammatik guruhlariga ajratish jarayonida shunga guvoh boʻlindiki, shu

⁶⁸ Xusainova. L Atoqli otlarning leksik-grammatik guruhlari. Dissertatsiya. Urganch. 2017. 83-b

sohaning qiziqarli sababi nomsiz hech bir narsaning o'zi yo'q. Xullas, atoqli otlarning leksik guruhlarini va grammatik guruhlarini tahlil qilar ekanmiz bu soha ancha qiziqarli shu bilan birga o'z mutaxassisidan yuksak mahorat va bilim ko'nikma o'z navbatida anchagina izlanish mehnat talab qiladi. Sababi, onomastika tilshunoslik fanining eng ko'zga ko'ringan sohasidir.

UMUMIY XULOSALAR

Magistlik dissertatsiyasi davomida nomlar haqida va ularning turlarini o'rganish davomida onomastik birliklardan ideonimlar diqqatimni tortdi. Foydalanayotgan har bir narsamiz, hattoki hozirda ushbu disserttsiya uchun tanlab olingan Shafoat Rahmatullo Termiziyning "Ozod so'z" saylanmasi ham onomastik birliklar sifatida tadqiq qilinadi.

Nom alohida badqiq qilinganda uning obyektiv olamdagi o'z ma'nosi ochib beriladi. Nom boshqa birliklar bilan birga olinib tahlil qilinganda onomastik birlik sifatidagi ma'nolaridan tashqaridagi mazmuni ham namoyon bo'ladi. Maslan, tadbiiq predmeti etib olingan "Ozod so'z" ni olsak. Ko'chma ma'noda qo'llangan bu nomda so'z aslida so'zlovchining yurak qatlarida yashirinib yotganligi va uni erkinlikka chiqarishini bildirdi. Shu o'rinda saylanmaga so'zboshi yozgan O'zbekiston Xalq shoiri Usmon Azim shunday deydi: "Saylanmangizga so'zboshini nega xat deb atadim? Chunki sizga bo'lgan ko'nglimdagi gaplarni aqllilikka davogar so'z boshi "janr" ga sig'ira olmasligimni his qildim"⁶⁹.

Shoir ijodida qo'llagan nom turlari va ularning derevatsiyasi tahlil jarayonida xalqchil ekanligi ko'zga tashlanadi. Shafoat Termiziy ijod namunalari salmoqli va bu ishlar uchun hali materiallar yetarlicha topiladi degani. Xususan, tadqiqot natijasida hali o'rganish va tadqiq qilish uchun o'zbek xalqi milliy va madaniy merosidagi nom turlari bisyor. Ularni tahlilga tortish amaliy ahamiyat kasb etadi.

Disserttsiyanin yozish jarayonida shunday xulosaga keldimki, nomshunoslikni fanda ikkinchi bir termin onomastika deb ham atashadi. Bu ko'proq Yevropa shuningdek rus, qozoq, ozarbayjon, tilida shunday yuritiladi.

O'zbek tilshunosligi sohasida nomshunoslik alohida bir sohasi bo'lish bilan birga hozirgi zamon ilm-fanining talablaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishga ehtiyoj sezilmoqda. Zero, barcha xalqlarda nomga, nomlanishga munosabat e'tiborda bo'lgani uchun amalda qo'llanilayotgan nomlarni to'g'ri, aniq va xatosiz yozish bu sohadagi ham savodxonlikni ham madaniylikni, ma'rifiylikni

⁶⁹ Termiziy Sh "Ozod so'z" Yangi asr avlod. Toshkent – 2003. 15 – bet

ifodalovchi me'yoriy holatlardan biri sanaladi. Bu sohadagi ilmiy izlanishlar O'zbek tilshunosligining markazida turuvchi leksikografiyaning boyishiga xizmat qiladi.

V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Siyosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати ва Қонунчилик палатасига Мурожаатномаси. – Халқ сўзи. 2017. 23 декабрь.

2. Мирзиёев Ш.М. “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг камровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарор. – Халқ сўзи. – 2018. – 6 июнь.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. – “Халқ сўзи” газетаси. – 2017 йил, 8 февраль. №28 (6722).

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони // www.lex.uz

5. И. Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т., Ўзбекистон, 1997. Б.137

II. Asosiy adabiyotlar:

1. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси / -Тошкент: Фан, 2013.

2. Б.Йўлдошев “Ўзбек тили ономастикаси масалалари ”танлаима фанндан услубий қўлланма. Самарканд – 2011

3. Til tizimi sathlari:semantik – funksional va struktur asoslari.Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2009.

4.БегматовЭ. Улуқов Н.М.Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич. Наманган, 2008. 166 б

5.Эназаров Т. Номшунослик масалалари. Услубий қўлланма. Тошкент: Университет, 2010. 112

6.Termiziy Sh “Ozod so‘z“ Yangi asr avlod. 2003

7.Xusainova.L. Atoqli otlarning leksik-grammatik guruhleri. Dissertatsiya. Urganch. 2017. 100-b

III. Ilmiy risola, maqola, tezis, monografiya, darslik, o‘quv va metodik qo‘llanmalar:

1. Ахманова О.С., Беленькая В.Д. Микропонимика как особый аспект топологии наименований // Вестник МГУ. Серия: филология. – 1966. – №3, - С.85.

2. Ахмедов Т.М. О древнесемантических реликтах аг // ак, гара // кара и сары в тюркских топонимах // Ономастика Узбекистана. – Т.: Ўқитувчи, 1987. С.23-24.

3. Бартольд В.В. Туркистан в эпоху монгольского нашествия. Соч. I, – М., 1963.173 с.

4. Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. – Т.: Фан, 1991. 152 б.

5. Бегалиев Н. Топонимларнинг ўзбек халқ этногенезидаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2004. – 4-сон. Б. 67-71.

6. Бегалиев Н. “Хўжа” компонентли географик номлар ҳақида // Тил ва нутқ систем-сатҳ талқинида. Проф. Ҳ.Орзикулов хотирасига бағишланган халқаро илмий-назарий конференция материаллари. 2005 йил 10-11 октябрь. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2005.Б.70-71.

7. Бегалиев Н. Ўзбек этнонимлари тарихидан. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2005.Б.63-65.

8. Бегматов Э., Наимов С. О классификации топонимов // Тюркское языкознание. –Т.: 1985.С 275-279.

9. Бегматов Э. Истиқлол ўлкасининг топонимик сиёсати // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1997. – 3-сон.Б.3-9.

10. Бегматов Э. Жой номлари – маънавият кўзгуси. – Т., 1998.Б.33-34.

11. Бухоро Шарқ дурдонаси. – Т.: Шарқ, 1997. Б.22-28.

12. Витов М.В. Севернорусская топонимия XV-XVIII вв. (К постановке топонимического источниковедения) // Вопросы языкознания. М., 1967. – №4.С.90.
13. Вопросы ономастики. – Самарканд: изд. СамГУ, 1976.170 с.
14. Вяткин В.Л. К исторической географии Ташкентского района. ПТКЛА,1900.С. 156-159.
15. Гаджиева Н. З. Проблемы тюркской ареальной лингвистики. – М.: Наука, 1975.304 с.
16. Ганиев Т. Конверсия в татарском языке. – Казань. 1985.С. 6.
17. Дарбакова В.Г. К этимологии этнонима – калмык // Этнонимы. – М.: 1970.С.265-268.
18. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Т.: Наврўз, 2017.Б.8.
19. Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1978. – 1-сон.Б. 17-20.
20. Дўсимов З. Топонимларнинг ясаши масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1980. – 2-сон.Б.45.
21. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Т.: Фан, 1985.104 б.
22. Жаббаров И. Ўзбек халқи этнографияси.–Т.: Ўқитувчи, 1994.312 б.
23. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 1960.512 б.
24. Зинин С. И. Микротопонимия Тошкента // Общественные науки в Узбекистан. – 1967. – № 7.С.55-57.
25. Ишаев А. Ўзбекистон топонимикасидан материал йиғишга доир // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. – Т., 1963. 5-ж.Б. 571-576.
26. Камолиддин Шамсиддин. Қадимий исмлардан ясалган жой номлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2003. – 2-сон.Б.45-51.
27. Караев С.А. Древнетюркские топонимы средней Азии // Советская тюркология. – 1985. – №6.С. 23-35.
28. Караев С.К. Топонимия Узбекистана. – Т.: Фан, 1991.130 с.

29. Каримов И. “Бухоро Шарқ дурдонаси” китобига сўзбоши. Шу асар. – Т.: Шарқ, 1997.Б.3.
30. Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Т.: Фан, 2006.129 б.
31. Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг ўрганилиши. – Т.: Фан, 1982 .96 б.
32. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: СЭ. 1964.С.205.
33. Карпенко Ю.А. Лингвистика-география-история // Проблемы топонимического этимологизирования. СС. – М., 1970. – Вып.4.С.91.
34. Кононов А.Н. О семантике слов *қара* и *ақ* в тюркской географической терминологии. – ИООН АН Тадж. ССР, вып. V. 1954.С.83-85.
35. Мадраҳимов З. Топонимика фанидан маъруза матни. – Наманган, 2010.Б. 24.
36. Мамедов М. Халқ номлари жой номларида .– Т., 1981.48 б.
37. Маракуев А.В. Краткий очерк топонимики как географической дисциплины. Уч. зап. Казахск. ун-та. Т.18, вып. 2. 1954. С.32.
38. Матвеев А.К. Субстратная микротпонимия как объект комплексного регионального исследования // Вопросы языкознания. – 1989. №1. С. 77-85.
39. Махпиров В. Тюркские топонимы в «Дивану лугат-ит тюрк» // 1983. – №1. С. 34-39.
40. Мизиев К.А. О патомониме *argu* // Советская тюркология. – 1985. – №2. С.38-41.
41. Молчанова О.Т. К вопросу о географической терминологии и топонимии территории // Советская тюркология. – 1972. – №6.С. 68-73.
42. Муллаев Т. Жанубий Қозоғистон топонимикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1968. – 1-сон.Б.40.
43. Муллазоде С.М. Топонимия северных районов Азербайджана. – Баку: Маариф, 1979.С.137-138.

44. Мурзаев Э.М. Изучение географических названий. Справочник путешественника и краеведа т. 2.. – М. 1950. С. 649.
45. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – М.: Мысль, 1974. С.81; 200-201.
46. Муҳаммаджонов А. Жой номлари – тарихий манбадир // Илмий-амалий конференция докладлари тезислари. – Т., 1994. Б.15-17.
47. Муҳаммаджонов А. Работ атамаси этимологияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1995. – 2-сон. Б.43-45.
48. Муҳаммаджонов А. Самарқанднинг тарихий топонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2007. – 4-сон. Б.38.
49. Муҳаммаджонов Қ. Топонимлар – халқ тарихини ўрганиш манбаи// “Ономастика Узбекитана” тезиси 2-республиканской научно-практической конференции. (Карши, 14-16 сентябрь 1989). – Т., 1989. С.55.
50. Муҳаммаджонов А. Айрим топонимлар семантикаси// Ўзбек тили ва адабиёти – 2004. – 2-сон. Б,39-42.
51. Назаров К., Эназаров Т. Жой номларини йиғиш сўроқлиги. – Т.: Университет, 1995. Б.19-24.
52. Наимов С. Топонимик аниқлагичлар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1983. – 4-сон. Б. 62-63.
53. Нафасов Т. Объектларнинг номланишига доир // Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Т., 1976. Б.56-59.
54. Нафасов Т. Ўзбек номномаси. – Қарши: Насаф, 1993. 154 б.
55. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи. – Т.: Муҳаррир, 2009. Б. 198-199.
56. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати (Ўзбекистоннинг жанубий районлари). – Т.: Ўқитувчи, 1988. 135 б.
57. Неъматова Ю. Наманган вилояти ойконимлари // Илм зиёдир. Проф. Р.Расулов таваллудининг 60 йиллигига бағишланган илмий мақолалар тўплами. – Т.: ТДПУ нашри, 2006. Б.167-170.
58. Ономастика Узбекистана. – Т.: Ўқитувчи, 1987. 92 с.
59. Ономастика Узбекистана. – Т.: Ўқитувчи, 1989. 208 с.

60. Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари. – Т.: Фан, 1997. Б. 94-111.
61. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Т.: Фан, 1989. Б.18.
62. Охунов Н., Аҳмадалиев Ю. Фарғона вилояти ойконимларининг номланиш хусусиятлари. – Фарғона, 2010. 122 б.
63. Подольская Н.В. Проблемы ономастического словообразования (к постановке вопроса) // Вопросы языкознания. – 1990. – №3. С. 40-53.
64. Подольская Н.В., Суперанская А.В. Терминология ономастики // Вопросы языкознания. – 1969. – № 4. С.141.
65. Поспелов Е. М. Картографирование как метод исследования субстратной топонимики // Вопросы языкознания. – 1967. – № 1, С.80.
66. Рахматов Т. Этимология топонима Самарканд // Советская тюркология. – Баку, 1973. – №4. С.43-50.
67. Саидов А. Тоғ сойлари – суғориш манбаи. – Т.: Фан, 1974. Б.14.
68. Саттаров У. Топонимик ривоятларнинг ўзига хос хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2000. – 6-сон. Б. 36-39.
69. Суперанская А.В. Теоретические проблемы региональных топонимических исследований // Материалы конференции по ономастике Узбекистана. – Джизак, 1985. С. 10-11.
70. Суперанская А.В. Что такое топонимика? – М.: Наука, 1985. С.43.
71. Терминология ономастики // Вопросы языкознания. – 1969. – №4. С. 140-146.
72. Томахин Г.Д. Топонимы как реалии языка и культуры (на материале географических названий США) // Вопросы языкознания. – 1984. – №3. С. 84-90.
73. Топоров В.Н. Из истории теоретической топономастики // Вопросы языкознания. – 1962. № 6.
74. Тўйчибоев Б. Ўзбек тилининг тараққиёт босқичлари. – Т.: Ўқитувчи, 1996. 176 б.

75. Уринбоев Б.У., Бегматов Э.А., Караев С.К. Топонимика Узбекистана (состояние и проблемы)// Материалы конференции по ономастике Узбекистана. – Джизак, 1985. С.3-5.
76. Файзиев А., Назаров И. Фитонимлар – ахборот манбаи//“Жой номлари – халқ тили ва маънавиятининг нодир мероси” мавзуидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Навоий, 1998. Б.77-78.
77. Холмўминов Х. Бойсун район микротопонимларининг лексик-семантик хусусиятлари // Ўзбек тилининг лексик-грамматик хусусиятлари. Илмий мақолалар тўплами. – Т., 1988. Б. 73-75.
78. Хромов А.Л.Очерки по топонимии и микротопонимии Таджикистана. –Душанбе: Ирфон, 1975, С.7.
79. Хромов А.Л. Таджикская микротопонимия долин Верхнего Зерафшана и Ягноба//Ономастика Средней Азии. – М.: Наука, 1978. С.58-62.
80. Шарипов Ҳ. Жанубий Қозоғистон топонимикасидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1978. – 2-сон. Б.48-52.
81. Эназаров Т.Ўзбекистондаги баъзи топонимларнинг этимологик талқини. – Т., 2004. Б.4.
82. Юсупов К. Айрим топонимлар масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти. 1966. 1-сон. Б.15.
83. Ўринбоев Б. Жиззах вилояти топонимлари. – Жиззах, 1992. 53 б.;
84. Ўринбоев Б. Самарқанд вилояти топонимларининг изоҳи. – С., 1997. 202 б.
85. Қодирова Ш. Тошкент микротопонимиясининг номланиш принципларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1966. – 6-сон. Б.38.
86. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978. Б.96.
87. Қораев С. Топонимика ва тарихий география // “Жой номлари – халқ тили ва маънавиятининг нодир мероси” мавзуидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Навоий, 1998. Б.99-100.
88. Қораев С. Ўзбекистон вилояти топонимлари. – Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Давлат илмий нашриёти, 2005. 239 б.

89. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. –Т.: 2005. Б.57.
90. Ҳамроқулов Ҳ. Географик номлар сири. – Т., 1985.
91. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Т.: Фан, 1965. Б.124.
92. Ҳасанов Ҳ. Ер тили. – Т.: Ўқитувчи, 1977. 102 б.
93. Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. – Т.: Ўзбекистон, 1985. 120 б.
94. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланом, 1-жилд. – Т., 1966, 273 б

IV. Dissertatsiyalar va dissertatsiya avtoreferatlari:

95. Аслонов А.С. Шофиркон тумани микротопонимиясининг лингвистик таҳлили: Филол. фан. номз. дисс. – Т., 2005. 46 б.
96. Данчинова И. А. Методологии и методика синхронического изучения топонимических систем: Автореферат дисс. д-ра филол. наук. –М., 1983. 25 с.
97. Дусимов З. Историко-лингвистический анализ топонимии Хорезма: Автореферат дисс. д-ра филол. наук. – Т., 1986. 52 с.
98. Закиров А.А. Топонимия Джизахской области Узбекской ССР: Автореф. дисс.канд. филол. наук. – М., 1991. 20 с.
99. Кадырова Ш.М. Микротопонимы Ташкента: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Т., 1970. 28 с.
100. Караев С. Опыт изучения топонимии Узбекистана: Автореф. Дисс.канд. филол. наук. – Т., 1969.
101. Караев С.К. Ойконимия Узбекистана. Диссертация на соискание ученой степени доктора географических наук в форме научного доклада. – Т., 1998. 50 с.
102. Карпенко Ю.А. Топонимия Буковины: Автореф. дисс... докт. филол. наук. – Киев, 1967. С.24-25.
103. Латипов Ж. Марғилон шаҳри ва унинг атрофи топонимияси: Филол. фанлари номз.дисс. – Т., 1975. 219 б.
104. Мингбоев Н. Топонимия Мирзачуля (Историко-лингвистический анализ): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Баку, 1988. 21 с.

105. Нафасов Т. Қашқадарё область топонимлари: Фил. фан. номз.... дисс. – Т., 1968. 301 б.

106.Орипов Ў.А. Нурота тумани макро- ва микротопонимиясининг лисоний таҳлили: Филол. фан. номз...дисс. автореф. – Т., 2003. 22 б.

107.Охунов Н. Топонимия кокандской группы районов: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Т., 1978. 23 с.

108. Пардаев А.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол. фанл. номз.... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004. Б.8.

109. Ражабов Ў. Хоразм топонимияси индикаторларининг лисоний таҳлили: Филол. фанл. номз.... дисс. автореф. – Т., 2007. 47 б.

110. Темиров Ш. Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи: Филол. фанл. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. – Қарши, 2019. Б.12.

V. Lug‘atlar:

111.С Абрамян Р. Пехлавийско-персидско – армяно-русско – английский словарь. – Ереван, 1965. С.61.

112.Арабско-русский словарь. Сост. Х.К.Баранов. – М., 1962, 956 с.

113.Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. Б.76-83.

114.Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1977. Б.48.

115.Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. С. 515.

116.Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 3 жилдлик. 3-жилд. – Т.: Фан, 1963. 422 б.

117.Муҳаммад Ғиёсиддин. Ғиёс ул-луғот. Жилд 1. – Душанбе: Нашриёти “Адиб”, 1987. С.119-120.

118.Навоий асарлари луғати. Алишер Навоий асарлари ўн беш томлигига илова. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. Б.517.

119. Найимов С. Бухоро вилояти жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Бухоро, 1997. Б.14.
120. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Т.: Университет, 2000. Б.31-32.
121. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Справочник лингвистических терминов. – М., 1972. С.447.
122. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Том 1. – М.: Наука, 1974. С.188.
123. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 1-том. – М.: Рус тили, 1981. 631 б.
124. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томли. 2-том. – М.: Рус тили, 1981. 717 б.
125. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т.: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2006. 679 б.
126. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Т.: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2006. 671 б.
127. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т.: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2007. 687 б.
128. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Т.: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2008. 606 б.
129. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Т.: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2008. 592 б.
130. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 12 жилдли. 2-жилд, – Т.: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. Б. 282; 299.
131. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдли. 3-жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. Б.462.
132. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдли. 7-жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2004. Б. 486.

133. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдли. 10-жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2005. Б. 309.

VI. Internet saytlari

1. <http://www.yedu.ru> va <http://www.yedu.uz> – Ta’lim saytlari.
2. <http://www.yeqworld.ru> – adabiyotlarning elektron variantlari.
3. <http://ru.wikipedia.org> – erkin ensiklopediya «Vikipediya».
4. <http://www.prepodu.net> – adabiyotlarning elektron variantlari.
5. <http://www.twirpx.com> – adabiyotlarning elektron variantlari.
6. <http://www.ziyonet.uz> – adabiyotlarning elektron variantlari.
7. <http://www.allpravo.ru> – adabiyotlarning elektron variantlari.